2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 201 (1800), 2026-yil 28-sentabr, dushanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘ZBEKISTON TURIZM SOHASI XODIMLARIGA

Qadrli do‘stlar!

Avvalo, siz, azizlarni 27-sentabr — Butunjahon turizm kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Bugungi kunda turizm mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadigan, minglab yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladigan istiqbolli tarmoqqa aylanib bormoqda.

Keyingi yillarda yurtimizda olib borilayotgan ochiqlik siyosati, viza tartibining soddalashtirilgani, transport va mehmonxona infratuzilmasining kengaytirilgani, tadbirkorlar uchun ko‘plab soliq hamda bojxona imtiyozlari joriy qilingani soha rivojiga yangi shiddat bermoqda.

Buning tasdig‘ini 2025-yilda O‘zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar soni 2016-yilga nisbatan salkam 6 barobar oshib, qariyb 12 million nafarga yetgani, turizm xizmatlari eksporti 11 karra ko‘payib, 4 milliard 800 million AQSH dollarini tashkil etgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Mamlakatimizning global turizm siyosatidagi o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Bu haqda so‘z yuritganda, O‘zbekistonning tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2027-yil Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili, deb e’lon qilingani, BMT Turizm tashkiloti respublikamizni dunyodagi eng tez o‘sayotgan beshta sayyohlik yo‘nalishiga kiritganini ta’kidlash lozim.

Albatta, bunday yutuqlar zamirida yurtimizdagi minglab turoperator va turagentlar, mehmonxona va oilaviy mehmon uylari xodimlari, gid va ekskursovodlar, restoratorlar, transport va servis kompaniyalari vakillari, hunarmandlar, madaniyat namoyandalari, muzey xodimlari, ustoz-murabbiylarning mashaqqatli mehnati mujassamdir.

Fursatdan foydalanib, ushbu yo‘nalishlarda sidqidildan xizmat qilayotgan barcha soha xodimlariga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli yurtdoshlar!

Yangi O‘zbekistonimizning o‘ziga xos tashrif qog‘ozi bo‘lgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Burhoniddin Marg‘inoniy majmualari, Zamonaviy san’at markazi kabi ko‘plab maskanlar butun xalqimiz qatori xorijiy sayyohlarda ham katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Biz bu boradagi ishlarimizni izchil davom ettirib, go‘zal diyorimizni jahondagi zamonaviy sayyohlik infratuzilmasi yanada rivojlangan eng mashhur turizm markazlaridan biriga aylantirishga qaror qilganmiz. Shu maqsadda Xivada o‘zida tarix va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan xalqaro turistik shaharcha, kongress markazi va tarixiy-etnografik bog‘ barpo etish, Ichanqal’ani raqamli texnologiyalar asosida “aqlli” muzey-majmuaga aylantirishni rejalashtirganmiz.

Samarqandda esa noyob eksponatlar jamlangan Ipak yo‘li muzeyi tashkil etiladi. Qoraqalpog‘istonda arxeologik yodgorliklar bo‘ylab yangi turistik yo‘nalishlar ochiladi. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanida “G‘ilon”, Namangan viloyatining Pop tumanida “Arashan” kabi yangi majmualar tashkil etiladi.

Sohada zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, yagona milliy turizm platformasini ishga tushirish, sayyohlik xizmatlarini bitta tizimga integratsiya qilish, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish, kadrlar malakasini muntazam oshirib borish ham ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Gastronomik, ekologik, ziyorat, tibbiyot, tog‘ va sarguzasht, ishbilarmonlik, etno va qishloq turizmi kabi yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan yo‘nalishlarni jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat beramiz.

Ana shunday dolzarb vazifalarni amalga oshirish orqali biz 2030-yilga borib, xorijiy sayyohlar sonini yiliga 20 million nafarga, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 7 foizga yetkazish, xizmatlar eksportini 8 milliard dollardan oshirish, yuqori toifadagi mehmonxonalar sonini esa ikki karra ko‘paytirishni maqsad qilganmiz.

Bunday ulkan marralarni egallashda, avvalo, o‘z hayotini turizm sohasi bilan bog‘lagan, yurtimizni, uning qadimiy tarixi va madaniyatini dunyoga targ‘ib etishni o‘zining professional burchi deb biladigan sizlar kabi tashabbuskor va tashkilotchi insonlarga tayanamiz.

Hech shubhasiz, sohaning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, xodimlarning fidokorona mehnatini munosib rag‘batlantirish bundan buyon ham e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Shu munosabat bilan **“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan turizm xodimi” faxriy unvonini** ta’sis etsak, o‘ylaymanki, bu taklifni barchangiz qo‘llab-quvvatlaysiz.

Sizlarni Butunjahon turizm kuni bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, sharafli faoliyatingizda omad va zafarlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

SHAXMAT BO‘YICHA O‘ZBEKISTON TERMA JAMOASI A’ZOLARIGA

Qadrli o‘g‘il-qizlarim!

Hurmatli ustoz va murabbiylar!

Dunyo shaxmat osmonida yorqin yulduz bo‘lib porlagan siz, aziz farzandlarimni 46-Jahon shaxmat olimpiadasida erishgan tarixiy g‘alabangiz bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Ikki karra olimpiada chempioni degan yuksak sharafli unvon, buyuk zafar barchamizga, ko‘p millatli xalqimizga muborak bo‘lsin!

Mana shu g‘oyat hayajonli onlarda 200 dan ziyod mamlakatdan 2 mingga yaqin eng kuchli va mashhur grossmeysterlar, nomdor jamoalar ishtirok etgan murosasiz bellashuvlarda ko‘rsatgan aql-zakovatingiz, yuksak irodangiz, mahorat va jasoratingiz uchun butun el-yurtimiz, dunyo shaxmat jamoatchiligi sizlarga tasannolar aytmoqda.

Sizlar — Yangi O‘zbekiston qahramonlari, jahon shaxmat olamida yangi tarix yaratgan oltin avlodsiz. Butun xalqimiz sizlar bilan cheksiz faxrlanadi, g‘ururlanadi.

Ushbu nufuzli musobaqalarda sizlar tengsiz aql va tafakkur egalari bo‘lgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar ekaningizni amalda namoyon etdingiz.

Sizlar amaldagi Olimpiada chempioni — Hindiston jamoasini mag‘lub etdingiz. Qadimiy shaxmat maktabi va ko‘plab grossmeysterlarga ega bo‘lgan Xitoy jamoasi ustidan tarixiy g‘alabani qo‘lga kiritdingiz. Dunyo reytingida birinchi o‘rinni egallab kelayotgan, olti karra Olimpiada chempioni bo‘lgan AQSH jamoasidan ham ustun keldingiz.

Nodirbek Abdusattorov barcha o‘yinlar davomida mag‘lubiyat nima ekanini bilmasdan, chinakam jamoa lideri ekanini isbotlab, birinchi taxtada oltin medal sohibiga aylandi.

Nodirbek Yoqubboyev esa Turkiya, Hindiston, Xitoy va AQSH vakillariga qarshi murosasiz bahslarda chinakam iroda va matonat ko‘rsatib, jamoamiz uchun hal qiluvchi g‘alabalarni ta’minlaganini alohida ta’kidlab aytmoqchiman.

Ayniqsa, Yoqubboyevning hindistonlik Nihal Saringa qarshi bellashuvi haqiqiy dramatik jang bo‘ldi. Yangi O‘zbekiston vakilining eng qiyin vaziyatda nihoyatda topqirlik bilan qo‘llagan taktik yurishlarini ko‘rib, dunyo shaxmat muxlislari hayratdan qotib qoldi.

Yana bir mard o‘g‘lonimiz, Javohir Sindorov chempionlarga xos o‘yin ko‘rsatib, umumiy g‘alabaga katta hissa qo‘shdi.

Bunday yirik xalqaro musobaqada birinchi marta ishtirok etgan Muhiddin Madaminov o‘g‘limizning kuchli raqiblariga kutilmagan zarbalar bergani va birorta ham mag‘lubiyatga uchramagani yuksak bahoga munosibdir.

Shamsiddin Vohidov Hindiston, Turkiya va Vengriya vakillariga qarshi murosasiz o‘yinlarda o‘zini yo‘qotmasdan, muhim ochkolarni olishga erishgani ham muxlislar xotirasida saqlanib qoladi.

Bir so‘z bilan aytganda, terma jamoamiz a’zolarining har biri o‘ziga ishonib, faqat oldinga qarab borganini ko‘rib, Yangi O‘zbekistonda qanday buyuk shaxmat maktabi, shaxmatchilar avlodi shakllanganiga butun dunyo tan berdi.

Musobaqalarda ikkinchi tarkib bilan ishtirok etgan jamoamiz qayd etgan natija ham bizni quvontiradi.

Jahongir Vohidov o‘g‘lim kuchli iroda ko‘rsatib, ushbu jamoamizni sovrinli o‘rinlar sari boshladi. Ispaniya, Angliya va Niderlandiya kabi davlatlar vakillari ustidan qozonilgan ishonchli g‘alabalar unutilmas tarixga aylandi.

Ayollar jamoamiz ham keskin kurashlarda haqiqiy matonat namunasini ko‘rsatdi. Ular AQSH jamoasi bilan tengma-teng bahs olib borganlari, 11 ta turda 7 ta yutuqqa erishib, o‘n uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritgani ham muhim natijadir.

Samarqand olimpiadasida parashaxmatchilarimiz ham ulkan jasorat ko‘rsatib, bunday o‘yinlar tarixida birinchi marta bronza medalini qo‘lga kiritishdi. Selbi qizim shaxsiy hisobda kumush, Abdulaziz o‘g‘lim bronza medaliga sazovor bo‘lgani, Ahadxon o‘g‘lim umuman mag‘lub bo‘lmagani meni juda xursand qildi.

El-yurtimiz barcha shaxmatchilarimiz timsolida kuchli bilim va iroda sohiblarini, katta-katta marralarni zabt etishga qodir bo‘lgan Yangi O‘zbekiston yoshlarini ko‘radi.

Hech shubhasiz, bu yuksak g‘alaba barchamizga yangi kuch-g‘ayrat, ruh va ilhom bag‘ishlaydi, yosh avlodimiz uchun chinakam ibrat namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda shaxmat rivojiga berilayotgan doimiy e’tibor, yo‘lga qo‘yilgan samarali tizim va qulay sharoitlar sizlar erishgan natijalarni ta’minlashda muhim omil bo‘ldi. Yaqinda bu borada yana bir Prezident qarorini qabul qildik. Ushbu hujjat yaqin kelajakda yanada ulkan natijalar uchun, albatta, mustahkam zamin yaratadi.

O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi FIDE tomonidan 2026-yilda “Eng yaxshi federatsiya” nominatsiyasida g‘olib deb topilgani, tajribali murabbiy, grossmeyster Rustam Qosimjonov FIDEning faxriy vitse-prezidenti, Hulkar Tohirjonova FIDEning Markaziy Osiyo davlatlari bo‘yicha mintaqaviy prezidenti etib saylanganini O‘zbekistonning shaxmat mamlakati sifatida obro‘-e’tibori oshib borayotganining yana bir dalili sifatida qabul qilamiz.

Aziz farzandlarim!

Ikki hafta davomida azim Samarqand shahri bamisoli jahon shaxmatining poytaxtiga aylandi. Bu yerda bo‘lib o‘tgan nufuzli musobaqalar, qatnashchi davlatlar va shaxmatchilar soniga ko‘ra, rekord natijalar bilan tarixga kirganini alohida ta’kidlash lozim.

Barchamizning umumiy g‘alabamiz uch ming yillik boy tarix va madaniyat ovozi kelib turgan, XIV-XV asrlarda Ikkinchi Renessans markazlaridan biri bo‘lgan bu buyuk shaharda qo‘lga kiritilgani uning qadr-qimmatini yanada oshirmoqda.

Shu yil noyabr oyida bizni yana bir katta shaxmat bayrami kutib turibdi. Jahon toji uchun bo‘ladigan tarixiy bellashuvda shaxmatimiz faxri Javohir Sindorovdan barchamiz ulkan zafarlarni kutib qolamiz. Sen bunga albatta qodirsan, Javohir bolam!

Fursatdan foydalanib, 46-Jahon shaxmat olimpiadasida Vatanimiz shon-shuhratini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shgan o‘g‘il-qizlarimizga, ularning ota-onalari, ustoz va murabbiylariga, terma jamoamizning barcha a’zolariga chin dildan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Ushbu musobaqalarni yuksak darajada tashkil etgan, olimpiada ishtirokchilariga xalqimizga xos mehmondo‘stlik, hurmat va ehtirom ko‘rsatgan Samarqand viloyati ahliga va mahalliy hokimlik vakillariga, barcha tashkilotchilarga katta rahmat aytamiz.

Sizlarga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, kelgusi faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Bizga mana shunday buyuk shukuh, ulug‘ zafarlarni taqdim etgan shaxmatchi farzandlarimiz doimo sog‘-omon bo‘lsin!

Sizlarga hamisha porloq g‘alabalar yor bo‘lsin, aziz bolalarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

MILLIY YUKSALISH VA TABIAT OLDIDAGI BURCH

Prezidentimiz O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda kelgusi o‘n yillikni milliy yuksalish davri etib belgiladi va inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan yettita milliy dasturni bayon etdi. Ularning to‘rtinchisi suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirishga bag‘ishlangan bo‘lib, uning mazmunini Prezidentimiz “Tabiatga munosabat — xalqning madaniyati, davlatning mas’uliyati va taraqqiyotning sifat ko‘rsatkichidir” degan fikr orqali asoslab berdi.

Ushbu ta’rif uch tushuncha — fuqaro xulqi, davlat vazifasi va rivojlanish natijasiga yaxlit mohiyat sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi yo‘nalishning asosiy mazmuni insonning qanday muhitda yashashi, tabiiy boylikdan qanday foydalanishi va bu boylikni kelgusi avlodga qay holda qoldirishi bilan uzviy bog‘liq. Suvning o‘z vaqtida yetib kelishi dehqon mehnatining natijasiga ta’sir qiladi. Uyga yaqin soyali maskan yoshi ulug‘ insonning sayrga chiqishini osonlashtiradi. Ana shunday oddiy ehtiyojlar orqali ekologik vazifaning ijtimoiy mohiyati ochiladi.

Bunday yondashuvning yangiligi shundaki, u ekologiyani alohida, tor sohaviy masala sifatida emas, balki barcha milliy dasturlarni birlashtiruvchi umumiy mezon sifatida ko‘radi. Ta’lim tizimidagi islohot, sog‘liqni saqlash sohasidagi yutuq, shaharsozlikdagi yangilanish — bularning barchasi inson yashaydigan muhitning sifatiga bog‘liq. Toza suv, toza havo va sog‘lom tuproq bo‘lmasa, boshqa sohalardagi har qanday yutuq ham o‘z qadrini yo‘qotadi. Shu bois, to‘rtinchi yo‘nalishni moddiy ko‘rsatkichlardan tashqari jamiyatning umumiy tafakkur tarzidagi o‘zgarish sifatida ham baholash to‘g‘ri bo‘ladi.

Davomi 3-betda



G‘AMXO‘RLIKKA JAVOBAN ASTOYDIL MEHNAT QILAMIZ

2



OLTIN AVLOD: O‘ZBEKISTON 46-JAHON SHAXMAT OLIMPIADASI CHEMPIONI

Ko‘hna va hamisha navqiron Samarqand salkam ikki hafta dunyoning qariyb hamma qit’asidan kelgan shaxmat ustalariga mezbonlik qildi. 46-Jahon shaxmat olimpiadasi yuksak saviyadagi tashkilotchilik ruhi bilan birga, o‘zbekistonlik shaxmatchilarning olamshumul g‘alabasi bilan ham tarix zarvaraqlariga yozilmoqda. Vakillarimizning yuqori darajadagi o‘yini butun dunyoni lol qoldirdi. Aql va tafakkur borasida yoshlarimiz hech kimdan qolishmasligini yana bir bor amalda isbotladi.

Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov, Nodirbek Yoqubboyev va Muhiddin Madaminovdan iborat jamoamiz hal qiluvchi so‘nggi turda ukrainalik shaxmatchilarni mag‘lub etdi. Shu tariqa yigitlarimiz olimpiada chempioni degan yuksak sharafga sazovor bo‘ldi.

O‘zbekiston terma jamoasi 2022-yili Chenay olimpiadasida oltin, 2024-yili Budapeshtda bronza medalni qo‘lga kiritgan edi. Samarqand olimpiadasidagi tarixiy g‘alaba esa shaxmatchilarimiz qo‘lga kiritayotgan yutuqlar tasodif emasligini hamda vakillarimiz dunyoning eng kuchli terma jamoasi ekanini tasdiqladi.

Albatta, oltin medalga erishish oson kechgani yo‘q. Musobaqa davomida jamoamizning Hindiston, Xitoy, AQSH kabi davlatlarning vakillarini ortda qoldirgani yurtimizda kuchli shaxmat maktabi shakllangani hamda yuqori salohiyatga ega ekanini yaqqol namoyon etdi.

Ayollar terma jamoamizning keskin kurashlarda ko‘rsatgan matonati hamda parashaxmatchilarimizning olimpiadalar tarixida ilk bor bronza medalni qo‘lga kiritgani quvonchimizga quvonch qo‘shdi. Bu natijalar, shubhasiz, butun xalqimizning umumiy g‘alabasidir.

Prezidentimiz terma jamoamiz a’zolariga tabrik yo‘lladi. “Sizlar — Yangi O‘zbekiston qahramonlari, jahon shaxmat olamida yangi tarix yaratgan oltin avlodsiz. Butun xalqimiz sizlar bilan cheksiz faxrlanadi, g‘ururlanadi.

Ushbu nufuzli musobaqalarda sizlar tengsiz aql va tafakkur egalari bo‘lgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar ekaningizni amalda namoyon etdingiz”, deyiladi tabrikda.

Darhaqiqat, vakillarimizning intellektual maydondagi bu jasorati yangi O‘zbekistonda jahon ilm-faniga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarning chinakam vorislari yetishib chiqayotganining amaldagi tasdig‘i bo‘ldi. Qolaversa, mamlakatimizda shaxmatni rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor yil sayin oshmoqda. Xalqaro shaxmat federatsiyasi O‘zbekiston shaxmat federatsiyasini yilning eng yaxshi federatsiyasi deb e’lon qilgani ham o‘zbek shaxmat maktabi nufuzi xalqaro maydonda e’tirof etilayotgani va tan olinayotganining dalilidir.

Samarqanddagi tarixiy g‘alaba barchamizga o‘zgacha g‘urur bag‘ishladi. Minglab yoshlarni shaxmat taxtasi atrofiga birlashtiradigan ulkan turtki bo‘ldi. Bu, shubhasiz, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yanada mustahkam bunyod etishga qo‘shilgan salmoqli hissadir.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qayrat SARIBAY:

“YANGI O‘ZBEKISTON KONSEPSIYASI OSIYODA HAMKORLIK VA ISHONCH CHORALARI BO‘YICHA KENGASH FALSAFASI BILAN UYG‘UNDIR”

Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash (OHICHK) Bosh kotibi Qayrat Saribay “Dunyo” axborot agentligiga bergan intervyusida yangi O‘zbekistonda so‘nggi 10 yil davomida hayotga tatbiq etilgan keng ko‘lamli islohotlarning amaliy natijalari va yutuqlari haqida so‘z yuritdi.



— Bu yil yangi O‘zbekistonda keng ko‘lamli islohotlar boshlanganiga 10 yil to‘ladi. Ushbu o‘zgarishlarning Markaziy Osiyo va butun Osiyo qit’asida ishonchni mustahkamlash, yaxshi qo‘shnichilikni qaror toptirish va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga ta’sirini qanday baholaysiz?

— Avvalo, yangi O‘zbekiston konsepsiyasiga poydevor bo‘lgan islohotlar boshlanganining o‘n yilligi munosabati bilan mamlakat rahbariyatini samimiy muborakbod etaman.

OHICHK uchun ochiqlik, pragmatizm va konstruktiv muloqot ayniqsa muhim bo‘lib, ularning uyg‘unligi Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. O‘zbekistonga qo‘shni davlatlarning javob sa’y-harakatlari va ushbu mamlakatlar rahbarlarining birlashgan siyosiy irodasi natijasida bugun Markaziy Osiyo yaxshi qo‘shnichilik va taraqqiyotning haqiqiy uyg‘onish davrini boshdan kechirmoqda.

Barqaror ijobiy dinamika yaqqol ko‘zga tashlanmoqda: o‘zaro ishonch mustahkamlanmoqda, mintaqaviy hamkorlik sifati sezilarli darajada yaxshilandi, o‘zaro savdo hajmi ortib bormoqda. Bu jarayonning o‘ziga xos katalizatori Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muntazam Maslahat uchrashuvlari bo‘lmoqda.

Ushbu yondashuv samaradorligini eng murakkab masalalar, jumladan, chegara masalalarini hal etish hamda suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish bo‘yicha konsensus izlab topish jarayoni ham tasdiqlamoqda.

Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi OHICHK falsafasi bilan tabiiy tarzda uyg‘unlashgan. Ishonch choralari va xavfsizlikning yagona arxitekturasini mustahkamlash tashkilotimizning tamoyillariga to‘liq mos keladi.

Markaziy Osiyoda o‘zaro hurmat va murosaga tayyorlikni birinchi o‘ringa qo‘yadigan munosabatlarni barpo etishning zamonaviy modeli butun Osiyo qit’asida ishonch choralarini kengaytirish uchun ilhomlantiruvchi namuna bo‘lib xizmat qilishiga ishonchim komil.

— So‘nggi o‘n yil davomida O‘zbekiston qator muhim xalqaro loyihalar tashabbuskori bo‘ldi. Fikringizcha, Toshkentning qaysi tashabbuslari Osiyoda ko‘p tomonlama muloqot va xavfsizlikni mustahkamlash uchun eng katta ahamiyatga ega?

— O‘zbekiston ahamiyati mintaqamiz doirasidan tashqariga chiqadigan muhim tashabbuslarni izchil ilgari surib kelmoqda. Ular orasida Markaziy Osiyoda va undan tashqarida barqarorlikni mustahkamlashga eng sezilarli ta’sir ko‘rsatgan ikki asosiy yo‘nalish alohida e’tiborga loyiq.

Birinchidan, mintaqaning o‘zida ishonchni mustahkamlashga qaratilgan tinchlikparvar tashabbuslar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bunda 2025-yilda o‘tkazilgan Farg‘ona tinchlik forumi muhim voqea bo‘ldi. U mintaqaviy birdamlikka bo‘lgan umumiy intilishni namoyon etdi. Mazkur forumning O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston tutashgan hudud — Farg‘ona vodiysida tashkil etilgani ramziy ma’noga ega.

Forum tarixiy Xo‘jand sammitida belgilangan yo‘nalishning mantiqiy davomi bo‘ldi. Ushbu sammit doirasida qo‘shni va birodar davlatlar rahbarlari ahamiyati o‘ta yuqori bo‘lgan chegara shartnomasi va Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani imzolagan edilar.

Erishilgan kelishuvlar yaxshi qo‘shnichilikning mustahkam modelini shakllantirdi va siyosiy iroda hamda ochiq muloqot mavjud bo‘lgan taqdirda eng murakkab masalalar bo‘yicha ham o‘zaro maqbul yechimlarni topish mumkinligini namoyish etdi.

Ushbu qadamlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O‘zbekiston xalqaro maydonda izchil ilgari surayotgan bunyodkorlik konsepsiyasining dolzarbligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, mazkur strategik yo‘nalishning davomi sifatida Toshkentning xavfsizlikni ta’minlagan holda o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlari muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayonga 2021-yil iyul oyida Toshkentda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan o‘tkazilgan “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi yuqori darajadagi xalqaro konferensiya katta turtki berdi. Keng ko‘lamli forum strategik transport-logistika loyihalarini muhokama qilish va dengiz portlariga yangi yo‘laklarni ochish bo‘yicha mustahkam konseptual asos yaratdi hamda qator yirik tashabbuslarni birlashtirdi.

Ushbu forumda ishtirok etar ekanman, ilgari surilgan ko‘plab g‘oyalar OHICHK maydonida muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkinligini mamnuniyat bilan qayd etgan edim. Zero, tashkilotimiz Osiyo qit’asining Tinch okeanidan O‘rtayer dengizigacha, Shimoliy Muz okeanidan Hind okeanigacha bo‘lgan turli hududlarini birlashtiruvchi o‘zaro bog‘liqlik megaloyihasidir.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbuslarining global darajadagi mantiqiy davomi va amaliy ifodasi sifatida 2022-yilda BMT Bosh Assambleyasining Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlashga qaratilgan maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. OHICHKga a’zo ko‘plab davlatlar mazkur hujjatni qo‘llab-quvvatladi. Rezolyutsiya strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ikki mintaqa o‘rtasida iqtisodiy, transport va madaniy aloqalarni mustahkamlash muhimligini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston rahbariyatining o‘zaro bog‘liqlik jarayonlariga kompleks yondashuvi OHICHK maqsad va vazifalari falsafasi bilan nihoyatda uyg‘un.

Bunday sinergiyaning yaqqol amaliy ifodasi O‘zbekiston tashabbusi bilan tashkil etilgan “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha Termiz muloqoti” forumi hisoblanadi. Ushbu noyob va dolzarb maydon savdo integratsiyasi masalalarini yaqin hududlardagi xavfsizlik masalalari muhokamasi bilan birlashtirish imkonini berdi.

Toshkentda OHICHK shafeligida “Tinchlik, bog‘liqlik va barqarorlik: umumiy farovonlik poydevorini shakllantirish” mavzusida Termiz muloqotining ikkinchi yig‘ilishi o‘tkazilgani O‘zbekistonning ikki mintaqani yagona, barqaror iqtisodiy o‘sish hududiga aylantirishga sodiqligini yaqqol namoyon etdi.

O‘zaro bog‘liqlikni keng ma’noda ko‘rib chiqish lozim: gap nafaqat iqtisodiy va moliyaviy integratsiya, balki gumanitar jihatdagi bog‘liqlik va madaniyatlarning o‘zaro boyishi haqida ham bormoqda.

— Bugun O‘zbekiston ochiq iqtisodiyotni shakllantirmoqda va barqaror taraqqiyot, raqamlashtirish hamda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan kun tartibini faol ilgari surmoqda. O‘zbekistonning OHICHK platformasida ushbu yo‘nalishlarni



rivojlantirish borasidagi amaliy hissasi va tashabbuslarini qanday baholaysiz? Bu tajriba mintaqa uchun qanday istiqbollarni ochib beradi?

— Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy va texnologik yutuqlari inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor e’tibor qaratish bilan chambarchas bog‘liq. Bu yondashuv OHICHK faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga to‘liq mos keladi. Ular davlatlarning barqaror rivojlanishi nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga, balki jamiyat salohiyatiga — sifatli ta’lim, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va inklyuziv muloqotga ham tayanishini anglashga asoslangan.

2020-yildan buyon Insoniy o‘lchov bo‘yicha hamrais sifatida O‘zbekiston umumiy ishlarga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda.

Birinchidan, OHICHK Ishonch choralari katalogining yaqinda yangilanishi doirasida O‘zbekiston tomoni gumanitar sohada qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi va ular katalogda muvaffaqiyatli aks ettirildi.

Bunda umuminsoniy qadriyatlar, xususan, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu butun Osiyo uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning mazkur strategik e’tibori keyinchalik OHICHKda Ozarbayjon raisligi davrida Xotin-qizlar kengashini tashkil etish bo‘yicha tashabbusning ilgari surilishiga ko‘p jihatdan ko‘maklashdi. Bugungi kunda OHICHK Xotin-qizlar kengashi ilg‘or tajriba almashish va ayollarni mintaqaviy rivojlanish jarayonlariga sifat jihatidan yangi darajada jalb etish uchun ishonchli platforma bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, O‘zbekistonning yoshlar siyosati sohasidagi salmoqli yondashuvini alohida ta’kidlash muhim. Toshkent OHICHK Yoshlar kengashi hamraisi sifatida yoshlarning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarishga faol ko‘maklashmoqda. Yoshlar kengashining 2023-yilda Samarqandda o‘tkazilgan oltinchi yig‘ilishini mamnuniyat bilan eslayman. Ushbu tadbir yoshlarga, ilm-fan va ta’limga tayanish barqaror kelajakka ishonchli investitsiya ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Bu ishlarning mantiqiy davomi ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish va fuqarolik jamiyatini jalb etishdan iborat. Bu yo‘nalishda O‘zbekiston OHICHKga a’zo 13 davlatdagi qariyb 200 ta oliy ta’lim muassasasini birlashtirgan Yetakchi universitetlar hamkorlik tarmog‘i (PNLU) Koordinatsiya kengashi a’zosi bo‘lgan Buxoro davlat tibbiyot instituti orqali akademik hamkorlikni qo‘llab-quvvatlamoqda.

Bundan tashqari, mamlakatda ko‘ngillilik madaniyati ijtimoiy birdamlikning samarali vositasi sifatida izchil rag‘batlantirilmoqda. Buning yaqqol tasdig‘i sifatida O‘zbekiston delegatsiyasining 2024-2025-yillarda Ostona va Bokuda o‘tkazilgan ko‘ngillilar anjumanlarida faol ishtirok etganini keltirish mumkin. Qolaversa, joriy yilda BMT maydonida OHICHK davlatlaridagi ko‘ngillilikka bag‘ishlangan ko‘rgazma muvaffaqiyatli namoyish etildi. Unda O‘zbekistonning ushbu sohadagi yutuqlari ham taqdim etildi.

Raqamlashtirish masalasidagi hamkorlik ham istiqbolli ekanini qayd etish lozim. Toshkent tomonidan taklif etilgan “Xavfsiz va inklyuziv raqamli kelajakni barpo etish” mavzusidagi inson huquqlari bo‘yicha OHICHK yuqori darajadagi forumi muhim qadam bo‘lishi kutilmoqda. U sentyabr oyining oxirida Toshkent va Samarqand shaharlarida o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu maydon inklyuziv raqamli kelajakni barpo etish bo‘yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish, shuningdek, sun’iy intellektning jadal rivojlanishi bilan inson huquqlarini ta’minlash o‘rtasida zarur muvozanatni topish imkonini berishi kutilmoqda.

Barqaror rivojlanish mavzusi alohida e’tiborga loyiq. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu masalaga ustuvor ahamiyat qaratib kelmoqda.

Markaziy Osiyo sayyoramizning iqlim o‘zgarishiga eng zaif mintaqalaridan biri ekanini hisobga olsak, Orol dengizi ekotizimiga antropogen ta’sir oqibatlari fonida bunday ekologik tahdidlarni minimallashtirish uchun sa’y-harakatlarni birlashtirishning keskin zarurati yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bu yo‘ldagi eng muhim qadamlardan biri ko‘kalamzorlashtirishdir. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston shaharlarida OHICHK xiyobonini barpo etish tashabbusi ajoyib g‘oya sifatida ko‘rinadi. Bunyodkorlikka qaratilgan ushbu jarayonni Yangi Toshkentdan boshlash mumkin deb hisoblayman.

O‘zbekiston ulkan demografik salohiyatga ega. Iste’dodli yoshlarni zamonaviy texnologik jarayonlarga integratsiya qilish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va ta’lim almashinuvlarini kengaytirish OHICHK doirasidagi sherikligimizning so‘zsiz ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonning tashkilotimiz qarorgohi qiyofasiga ramziy hissalaridan biri “Osiyo bog‘i”da o‘rnatilgan noyob ayvon bo‘ldi.

Samarqand ustalarining ushbu ijodi o‘z estetikasi bilan mehmonlarni doimo maftun qilib, o‘zbek xalqining boy madaniyatini ifoda etadi hamda Toshkentning OHICHKdagi faol ishtirokining yaqqol dalili bo‘lib xizmat qilmoqda.

— Kelgusi o‘n yillik haqida gapiradigan bo‘lsak, xalqaro hamkorlikning qaysi yo‘nalishlari O‘zbekistonning jahon maydonidagi mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi? Shuningdek, ushbu qutlug‘ sana munosabati bilan mamlakat rahbariyati va xalqiga nimalarni tilagan bo‘lardingiz?

— Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi aniq yo‘nalishga ega — bu boy milliy o‘zlikni saqlab qolgan holda va barqaror tinchlikni ta’minlash asosida jahon jarayonlariga integratsiyalashuvdir. Ishonchim komilki, kelgusi o‘n yillikda ochiqlik siyosatini davom ettirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va ko‘p tomonlama tuzilmalarda faol ishtirok etish muvaffaqiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari bo‘lib qoladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosiy kursining mohiyatini aniq ifodalaydigan asosiy g‘oya menga juda ma’qul: insonni barcha narsaning markaziga qo‘yish. Inson davlat siyosatining markazida turgan taqdirdagina oldimizga qo‘yilgan har qanday vazifa muvaffaqiyatli hal etiladi, barcha chaqiriqlar yengib o‘tiladi.

OHICHK Kotibiyati va shaxsan o‘z nomimdan mamlakat rahbariyati va butun birodar o‘zbek xalqiga tinchlik, farovonlik va tuganmas bunyodkorlik kuch-quvvatini tilayman.

Yangi O‘zbekistonning farovonlik sari ishonchli harakati butun Markaziy Osiyo barqarorligining mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘z navbatida, mintaqaning farovonligi butun Osiyo qit’asi xavfsizligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Ishonchim komilki, Markaziy Osiyoda shakllanayotgan bunyodkor g‘oyalar keng makonimizda ishonch arxitekturasini mustahkamlashda munosib ifodasini topadi.

“Dunyo” AA

Ostona shahri



> **— Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi aniq yo‘nalishga ega — bu boy milliy o‘zlikni saqlab qolgan holda va barqaror tinchlikni ta’minlash asosida jahon jarayonlariga integratsiyalashuvdir. Ishonchim komilki, kelgusi o‘n yillikda ochiqlik siyosatini davom ettirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va ko‘p tomonlama tuzilmalarda faol ishtirok etish muvaffaqiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari bo‘lib qoladi.**

G‘AMXO‘RLIKKA JAVOBAN ASTOYDIL MEHNAT QILAMIZ

Munosabat

Vodiyning gavhari Andijonimizda ikki kun katta bayram bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Davlatimiz rahbarini mehmondo‘st xalqimiz juda katta quvonch bilan kutib oldi. Zero, Prezidentimiz tashrifi har gal odamlar qalbiga quvonch, hayotiga farovonlik olib kiradi. Mustaqilligimizning 35 yilligi shukuhiga hamohang bu galgi tashrifdan, amalga oshajak yangi rejalardan ham viloyat ahli katta kuch oldi.



Qobiljon XUDOYBERDIYEV,
Andijon davlat tibbiyot instituti travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrasi mudiri, professor

O‘zim tibbiyot xodimi bo‘lganim uchun, asosan, tibbiyot yo‘nalishidagi ba’zi ishlarga to‘xtalishni xohlardim. Prezidentimizning bu sohaga alohida hurmati va e’tibori tufayli keyingi yillarda mamlakatimizda tibbiy ta’limda va amaliy tibbiyotda juda katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Birgina misol, tibbiyot oliygohlarida ijtimoiy fanlar soati 10 foiz qisqartirilgani klinik fanlar salmog‘i 10 foiz oshishiga xizmat qildi.

Shuningdek, talabalarga amaliy mashg‘ulotlar o‘tish 50/50 nisbatda olib borilmoqda. Bu Yevropa davlatlari singari bizda ham dual ta’limning bir tekis yo‘lga qo‘yilayotganidan dalolatdir.

Andijon davlat tibbiyot institutida simulyatsiya markazi tashkil qilinishi natijasida talabalar o‘zlari amaliy ko‘nikmalarini mustaqil ravishda murabbiylar nazorati ostida bajaradi va o‘zlashtiradi.

Bugungi kunda dunyoda amalga oshirilayotgan barcha noyob operatsiyalar O‘zbekistonda ham, xususan, Andijonda o‘tkazilayotgani viloyatimiz tibbiyotini yangi bosqichga ko‘tardi, Yevropa darajasiga yetkazdi.



Mana shunday sa’y-harakatlar natijasida Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasi jahon andozalariga mos ravishda qayta rekonstruksiya qilindi. Yuqori malakali tibbiy yordam ko‘rsatish uchun kadrlar salohiyati ham, ilmiy tajriba ham yetarli. Shularga tayangan holda institut klinikasida yirik bo‘g‘imlar kasalliklarida sun’iy bo‘g‘imga almashtirish, tizza bo‘g‘imi bilan bog‘liq barcha operatsiyalar, umurtqa pog‘onasi xastaliklaridagi murakkab jarrohliklar, jigar, buyrak ko‘chirib o‘tkazish operatsiyalari yo‘lga qo‘yildi.

Qisqa qilib aytganda, bemorlarning ko‘ngildagidek davolanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Bu ko‘plab insonlarning murakkab operatsiyalar uchun katta mablag‘ sarflab xorijga borishiga ehtiyoj qoldirmaydi. Zero, bunday amaliyotlarni amalga oshirish uchun xodimlarimiz chet ellarda bir necha bor malaka va tajriba oshirib qaytdi.

Biz, soha xodimlariga ko‘rsatilayotgan shunday g‘amxo‘rliklarga javoban bugun oldimizga qo‘yilgan barcha vazifalar ijrosini ta’minlash uchun tibbiyot instituti jamoasi ham bir tan, bir jon bo‘lib, ishonchni oqlash va xalqimiz roziligi yo‘lida astoydil mehnat qilamiz.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

O‘zbekistonda ichimlik suv tarmoqlaridagi eskirgan quvurlarni almashtirish, oqova suvni qayta tozalab, texnik ehtiyojlar, masalan, bog‘-xiyobonlar va yo‘l yoqalarini sug‘orish uchun qayta ishlatish kabilarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2026-yil 28-sentabr, 201-son

Buyuk o‘zbek yo‘li

MILLIY YUKSALISH VA TABIAT OLDIDAGI BURCH



Ilhom SUVONOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ilmiy kotibi, falsafa fanlari doktori, dotsent

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari ilgari surgan milliy yuksalish g‘oyasi markazida inson qadri turadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari, jamiyatning bilimi va madaniyati hamda insonning yashash sharoiti o‘zaro bog‘liq hodisa sifatida baholanmoqda. Odamlarga munosib turmush sharoiti yaratilganda hamda jamiyat manfaati kundalik qarorlarda hisobga olinganda yuksalishning haqiqiy mazmuni namoyon bo‘ladi. Bunday talqin o‘sishning ko‘lamini emas, odamlar hayotidagi amaliy samarasini birinchi o‘ringa olib chiqadi.

Shu bois, tabiiy muhitning holati ham taraqqiyot sifatini baholash mezonlaridan biriga aylanadi. Yangi turar joyning qadri uning yonidagi qulay yo‘lak, barqaror suv ta’minoti va dam olish joyi bilan ham belgilanadi. Korxonaning samaradorligini baholashda esa mahsulot hajmi bilan birga resurs sarfi va atrofga ko‘rsatayotgan ta’siri ham hisobga olinishi lozim. Bugungi iqtisodiy foyda ertaga aholi yoki tabiat zimmasiga og‘ir yuk bo‘lib tushmasligi uchun rivojlanishning uzoq muddatli oqibatlarini oldindan o‘ylash zamonaviy boshqaruvning zaruriy shartiga aylanmoqda.

Milliy yuksalishning ma’naviy jihati ham aynan shu nuqtada namoyon bo‘ladi. O‘z hovlisini obod qilgan inson ko‘chasidagi daraxtga ham e’tibor bersa, shaxsiy manfaat jamoatchilik manfaati bilan uyg‘unlashadi. Suvdan foydalanayotgan xo‘jalik yonidagi qo‘shnisining ehtiyojini hisobga olsa, tejamkorlikka adolat mezoni qo‘shiladi. Umumiy maqsad odamlarning kundalik odatlariga va amaliy hamkorligiga singigani sari milliy yuksalishning ijtimoiy asosi ham shunchalik mustahkamlanib boradi.

Bunday ko‘lamdagi rivojlanish tabiiy resurslardan foydalanishni ham puxta rejalashtirishni talab qiladi. Yangi korxonaning suv ta’minoti, energiya sarfi va atrof-muhitga ta’siri uni loyihalash jarayonidayoq hisobga olinishi zarur.

Shaharlarni kengaytirishda ham xuddi shunday yondashuv kerak. Yangi turar joylar bilan birga suv tarmog‘i, soyali yo‘laklar va dam olish maskanlariga ehtiyoj ortadi. Bularga o‘z vaqtida e’tibor berilmasa, keyinchalik kamchilikni bartaraf etish ancha ko‘p mablag‘ va mehnat talab qiladi. Demak, ekologik talablarni rivojlanish rejalariga dastlabki bosqichdayoq kiritish iqtisodiy qarorlarning uzoq muddatli samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bu bog‘liqlik sanoat tarmoqlarida ham yaqqol ko‘rinadi. To‘qimachilik, oziq-ovqat yoki qurilish materiallari ishlab chiqarish muayyan miqdorda suv va xomashyo sarfini talab qiladi. Xomashyodan oqilona foydalanish, chiqindini qayta ishlash va suv aylanishi tizimlarini joriy etish korxona uchun qo‘shimcha xarajat emas, aksincha, uzoq muddatli raqobatbardoshlikning shartiga aylanmoqda.

Mas’uliyat tushunchasining mohiyati

Tabiat oldidagi mas’uliyatni inson o‘z xatti-harakati atrof-muhitga va boshqa odamlarning hayotiga qanday ta’sir qilishini anglashi hamda shu anglash asosida yo‘l tutishi deb ta’riflash mumkin. Bu tushuncha ekologik axloq va ekologik madaniyat kategoriyalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ekologik axloq tabiatga munosabatdagi axloqiy mezonlarni, ekologik madaniyat esa bilim va qadriyatlarning kundalik odatlarda namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Mas’uliyat hissi ana shu ikkisini amaliy qarorga aylantirishga xizmat qiladi.

Bu mas’uliyatni uch darajada ko‘rib chiqish mumkin.

Birinchi daraja shaxsiy bo‘lib, hech kim kuzatmayotgan paytda ham suvni isrof qilmaslik, daraxtga zarar yetkazmaslik, ariqni ifloslantirmaslik kabi odatlar aslida ichki intizom masalasidir.

Ikkinchi daraja ijtimoiylik bo‘lib, umumiy boylikdan foydalanishda o‘z ehtiyoji bilan birga boshqalarning ehtiyojini ham hisobga olishdir. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, maktab, bog‘cha, shifoxona atrofidagi yashil hududlar — jamiyatning daxlsiz boyligi. Shu bois, ularni asrash shaxsiy emas, umumiy vazifamizdir.

Uchinchi daraja esa kelajak oldidagi mas’uliyat, ya’ni hali dunyoga kelmagan avlodlar haqida qayg‘urish mas’uliyatidir. Bu uch darajaning barchasi uzviy bog‘liq. Shuning uchun mas’uliyatni faqat qonunchilik yoki faqat targ‘ibot vositasida shakllantirish mumkin emas. Har ikkisi birga, uzoq vaqt kundalik amaliyotda sinalishi kerak. Aynan shu jihat to‘rtinchi milliy dasturni boshqa islohotlardan ajratib turadi. Uning natijasi bir yilda emas, bir necha o‘n yilliklar davomida ko‘rinadi.

Suv — hayot va taraqqiyot asosi

Prezidentimiz nutqida kelgusi besh yilda ekin maydonlarini suv tejaydigan texnologiyalar bilan to‘liq qamrab olish vazifasi alohida ta’kidlandi. Shu o‘rinda aytish kerakki, Jahon bankining 2025-yil 21-maydagi axborotiga ko‘ra, O‘zbekistonda suv iste’molining qariyb 90 foizi qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu bois, sug‘orishdagi samaradorlikning ahamiyati alohida xo‘jalik doirasidan chiqib, mamlakatning umumiy suv xavfsizligi masalasiga aylanmoqda.

Texnologiya bu vazifani amalga oshirish vositasi xolos. Sug‘orish usuli ekin turi, tuproq xususiyati va suv manbaiga mos tanlanganda samaradorlik ortadi. Ayrim sharoitda tomchilatib, boshqasida esa yerni tekislash va suv berish me’yorini to‘g‘ri belgilash ko‘proq natija beradi. Uskunani sozlash, unga xizmat ko‘rsatish va nosozlikni o‘z vaqtida bartaraf eta bilish, dehqonning malakasi, ishonchli maslahati va texnik xizmatning o‘zi kabi muhim omilga aylanadi.

Suvni tejash bilan birga adolatli taqsimlash ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Suv olish navbati aniq bo‘lmasa, tarmoq holati kuzatilmasa, eng zamonaviy uskuna ham kutilgan samarani bermaydi. Qayerda qancha suv sarflanayotgani ma’lum bo‘lganda isrof sababini aniqlash va bartaraf etish ancha osonlashadi. Xonadondagi oddiy tejamkorlik ham umumiy natijaga o‘z hissasini qo‘shadi.



Agar yuzta oila har kuni o‘n litrdan suv isrof bo‘lishining oldini olsa, o‘ttiz kunda o‘ttiz ming litr, ya’ni o‘ttiz kub metr suv tejaladi. Bu kichik odatlar yig‘indisi katta natijaga olib kelishiga yorqin misoldir.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, suv tejovchi texnologiyalar qamrovini kengaytirgan mamlakatlar, odatda, buni yagona chora sifatida emas, kompleks yondashuv tarkibida amalga oshirganini ko‘ramiz. Tomchilatib sug‘orish bilan birga tuproq namligini raqamli sensorlar orqali kuzatish, meteorologik ma’lumotlar asosida sug‘orish jadvalini tuzish, hosildorlik va suv sarfi o‘rtasidagi nisbatni doimiy tahlil qilish usullari keng tarqalgan. Bunday tizimli yondashuv O‘zbekiston uchun ham muhim yo‘nalish. Chunki faqat texnologiyani o‘zgartirish emas, balki suv xo‘jaligining butun zanjirini, manbadan to dalagacha qayta ko‘rib chiqish talab etilmoqda. Ilmiy muassasalar va xo‘jaliklar o‘rtasidagi hamkorlik, amaliyotda sinalgan tajribani keng tarqatish bu borada hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Shuningdek, O‘zbekistonda ichimlik suv tarmoqlaridagi eskirgan quvurlarni almashtirish, oqova suvni qayta tozalab, texnik ehtiyojlar, masalan, bog‘-xiyobonlar va yo‘l yoqalarini sug‘orish uchun qayta ishlatish kabilarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ko‘chatdan barqaror yashil muhitga

Yashillikning inson hayotiga ta’siri ilmiy jihatdan ham asoslangan. AQSH Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi ma’lumotiga ko‘ra, daraxt va o‘simliklar soya hosil qilishi hamda namlikni bug‘latishi orqali atrofni sezilarli darajada salqinlashtiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining shahar yashil hududlari bo‘yicha sharhida esa yashil maskanlarning ruhiy dam olish, jismoniy faollik va ijtimoiy muloqotga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Shu bois, maktab, bog‘cha, shifoxona va ko‘p qavatli uylar atrofidagi yashil hududlarni asrash bugun jamiyatning daxlsiz boyligini himoya qilish demakdir.

Tuman va shahar markazlarida yashillik ko‘lamini 30 foizga yetkazish maqsadi esa shaharsozlik falsafasi o‘zgarishini taqozo etadi.

Yashil hudud loyihaning dastlabki bosqichidan boshlab hisobga olinadigan tarkibiy qismga aylanishi, ko‘chat turi mahalliy iqlim va tuproq xususiyatlariga mos tanlanishi lozimligiga e’tibor qaratiladi.

Ekilgan ko‘chatni kuzatish borasida raqamli yondashuvlar ham alohida o‘rin tutadi. Xususan, “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida yuz mingdan ortiq daraxtga elektron raqam berilib, ularning o‘sishi va holati maxsus tizim orqali kuzatilmoqda. Bunday nazorat “qancha ko‘chat ekildi?” degan savoldan “qanchasi haqiqatan voyaga yetdi?” degan savolga o‘tishni amalda ta’minlaydigan vositadir. Raqamli kuzatuv, shuningdek, qaysi hududda qanday ko‘chat turi yaxshi tutib qolayotganini aniqlash, kelgusi rejalarni shu tajriba asosida takomillashtirishga yordam beradi.



Orolbo‘yi va cho‘llanishga qarshi kurash

To‘rtinchi milliy dasturning alohida va tarixiy ahamiyatga molik yo‘nalishi, albatta, Orolbo‘yi hududidagi ekologik tiklash ishlaridir. Dengiz qurishi natijasida hosil bo‘lgan Orolqum cho‘li mintaqa uchun chang va tuz bo‘ronlarining asosiy manbaiga aylangani, bu esa aholi salomatligi va qishloq xo‘jaligiga uzoq yillar davomida salbiy ta’sir ko‘rsatib kelayotgani sir emas. So‘nggi yillarda bu muammoni bartaraf etish yo‘lida izchil ishlanmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, Orolbo‘yida barpo etilgan himoya o‘rmonlari maydoni 2 million gektardan oshgani fikrimiz dalilidir.

“Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida 2021-yildan boshlab besh yil ichida 1 milliard tup daraxt va buta ekish vazifasi belgilangan edi. Ushbu dastur asosida saksovul, qandim, cherkez kabi qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar qurigan dengiz tubiga ekildi. Natijada nafaqat tuproqni shamol eroziyasidan asramoqda, balki mintaqaning mikroiqlimini ham asta-sekin yaxshilamoqda. Bu borada Germaniya kabi davlatlar bilan ham ilmiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, iqlim o‘zgarishiga chidamli saksovul navlarini birgalikda o‘rganish loyihalari amalga oshirilmoqda. Orolbo‘yidagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, eng og‘ir ekologik oqibatlarni ham izchil, ilmiy asoslangan va uzoq muddatli sa’y-harakat bilan yumshatish mumkin. Bu esa to‘rtinchi milliy dasturning mohiyatini, ya’ni bugungi qarorlar kelajak uchun qanday natija berishini namoyon etadi.

Orolbo‘yidan tashqari, mamlakatning boshqa hududlarida ham tuproq sho‘rlanishi va degradatsiyasi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Noto‘g‘ri sug‘orish tartibi, drenaj tizimlarining yetarli darajada ishlamasligi oqibatida ayrim ekin maydonlarining unumdorligi pasayib bormoqda. Shu bois, suv tejash bilan bir qatorda tuproq salomatligini tiklash, drenaj infratuzilmasini zamonaviylashtirish va ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimlarini joriy etishni ham to‘rtinchi milliy dasturning uzviy qismi sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Mintaqaviy hamkorlik va iqlim omili

Suv masalasini faqat bir mamlakat chegarasi doirasida ko‘rish mantiqqa zid. Markaziy Osiyoning katta qismi Amudaryo va Sirdaryo havzalari orqali bog‘langan. Jahon bankining Markaziy Osiyoda suv hamkorligiga oid axborotida ta’kidlanishicha, mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi cheklangan hamkorlik har yili 4,5 milliard dollardan ortiq iqtisodiy zarar keltirmoqda. So‘nggi oltmish yilda esa mintaqadagi muzliklar yuzasi 30 foiz qisqargan.



> **Ekilgan ko‘chatni kuzatish borasida raqamli yondashuvlar ham alohida o‘rin tutadi. Xususan, “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida yuz mingdan ortiq daraxtga elektron raqam berilib, ularning o‘sishi va holati maxsus tizim orqali kuzatilmoqda.**

Bu raqamlar umumiy suv resurslarini boshqarish va davlatlar o‘rtasida ma’lumot almashishni yaxshilash zaruratini yaqqol ko‘rsatadi.

Iqlim o‘zgarishi sharoitida bunday hamkorlikning ahamiyati yanada ortadi. Suv kam keladigan mavsumlarga tayyorgarlik ko‘rish, qurg‘oqchilik xavfini baholash va tejamkorlik tajribasini almashish mintaqaviy barqarorlikka xizmat qiladi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan suv tejash choralari esa aynan shu hamkorlikning amaliy tayanchidir. Ichki islohot bilan mintaqaviy muloqot bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir. Shuningdek, Orol muammosini hal etishda qo‘shni Qozog‘iston bilan hamkorlik davom etmoqda. Ikki mamlakat ham qurigan dengiz tubining o‘z hududiga tegishli qismida saksovulzorlar barpo etish borasida parallel ishlamoqda. Bu esa mintaqaviy ekologik muammoni hal etishda birgalikdagi harakatning qanchalik muhimligini ko‘rsatmoqda.

Tabiatga mas’uliyatli munosabatni faqat xarajat sifatida ko‘rish bir tomonlama yondashuvdir. Suv tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish, o‘rnatish va xizmat ko‘rsatish, ko‘chatzorlar barpo etish, landshaft dizayni kabi yo‘nalishlar kichik va o‘rta biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Tabiiy manzaralarni saqlash esa ekoturizm rivoji uchun imkoniyat ochadi. Biroq bunda suv sarfi va chiqindilarni boshqarish masalasi ham inobatga olinishi lozim. Demak, tabiatni asrash bilan uni oqilona iqtisodiy muomalaga kiritish o‘rtasida ziddiyat yo‘q. To‘g‘ri rejalashtirilgan yondashuvda bular bir-biriga xizmat qiladi.

Yoshlar tadbirkorligi uchun ham bu yo‘nalish keng imkoniyat yaratmoqda. Suv sarfini nazorat qiluvchi mobil ilovalar, tomchilatib sug‘orish uskunalarini ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar, mahalliy ko‘chatzorlar — bularning barchasi nisbatan kam sarmoya bilan boshlanib, amaliy foyda keltiruvchi sohalardir. Davlat tomonidan bunday tashabbuslarni imtiyozli kreditlash yoki grantlar orqali qo‘llab-quvvatlash ekologik mas’uliyatni yoshlarning kasbiy faoliyatiga aylantirishga xizmat qiladi. Natijada tabiatni asrash vazifasi majburiy choralar majmuidan ko‘ra, amaliy foyda keltiruvchi, jozibador faoliyatga aylanadi.

Jamoatchilik ishtiroki va ekologik tarbiya

Qaysi ko‘chada soya yetishmayotgani, qaysi ko‘chatga parvarish kerakligi, suv qayerda behuda oqayotganini mahalla ahli yaxshi biladi. Aholining taklifini tinglash va bajarilgan ish haqida ochiq ma’lumot berish ishonchni mustahkamlashning yagona yo‘li. Tabiatga munosabat esa, avvalo, oilada shakllanadi. Bola kattalarning suvdan qanday foydalanishi, daraxtga qanday qarashini kuzatib o‘rganadi. O‘zi parvarishlagan niholning voyaga yetishini ko‘rish mehnat bilan natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni his qilishga yordam beradi.

Maktabda o‘quvchilarning daraxt holatini kuzatishi, soya va ochiq joylar farqini taqqoslashi ekologik bilimni shaxsiy tajriba bilan boyitadi. Ilmiy muassasalar hududga mos ko‘chat tanlash bo‘yicha tavsiyalarni, ommaviy axborot vositalari sodda va ishonchli ma’lumotlarni keng tarqatishi lozim. Davlat, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari va fuqaro ana shu zanjirning halqalari bo‘lib, birortasining sustligi umumiy natijaga putur yetkazadi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining roli ham bu borada alohida ahamiyatga ega. Ko‘cha yoki mahalla miqyosida qanday ehtiyoj borligini aniqlash, shu ehtiyojni qondirish uchun zarur resurslarni safarbar etish va natijani aholiga ochiq yetkazish fuqarolik jamiyati va davlat idoralari o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashning amaliy yo‘lidir. Ko‘ngillilar, mas’ul tashkilotlar, yoshlar birlashmalari va xayriya jamg‘armalarining ekologik tadbirlardagi ishtiroki ham bu jarayonni boyitib, davlat bajarayotgan ishlarni jamoatchilik tashabbusi bilan to‘ldiradi.

Ekologik tarbiyaning uzluksizligi muhim shartlardan. Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichda tabiatga oid bilim asta-sekin chuqurlashib, nazariyadan amaliyotga o‘tishi kerak. Kichik yoshda oddiy kuzatuv va o‘yin orqali berilgan tushuncha o‘rta maktabda laboratoriya mashg‘ulotlari va amaliy loyihalar, oliy ta’limda esa ilmiy tadqiqot va ixtisoslashgan bilim bilan boyitiladi. Bunday uzluksizlik ta’minlansa, kelajakda mamlakat nafaqat ekologik savodli fuqarolarga, balki sohaning o‘zida ishlaydigan malakali mutaxassislarga ham ega bo‘ladi.

Prezidentimizning “Tabiatga munosabat xalqning madaniyati, davlatning mas’uliyati va taraqqiyotning sifat ko‘rsatkichidir” degan fikri to‘rtinchi yo‘nalishning falsafiy mazmunini yaxlit ifodalaydi. Xalq madaniyati — tejamkorlik, ozodalik va umumiy boylikka ehtiyotkor munosabat, davlat mas’uliyati — foydalanish qoidalari, zarur infratuzilma va ularning barqaror ishlashini ta’minlash. Bu uch tushuncha bir-birini to‘ldiradi: xalq madaniyati bo‘lmasa, davlat sa’y-harakatining yakka o‘zi natija bermaydi, davlat mas’uliyati bo‘lmasa, xalq madaniyati tizimli qo‘llab-quvvatlovsiz qoladi.

Taraqqiyot sifati esa aniq savollarga berilgan javoblar bilan baholanadi. Suv ta’minoti yaxshilandimi, ko‘chatlar sog‘lom o‘syaptimi, aholiga qulay yashil joylar ko‘paydimi? Natija odamlar hayotida ko‘ringanda jamoatchilik ishonchi ham ortadi. Shu ma’noda, ekologik natija boshqaruv madaniyati va qabul qilingan qarorlar sifatining ham ko‘zgusidir.

Bunday yondashuv hisobdorlik tizimining yangicha shakllanishini ham taqozo etadi. Xususan, har bir tuman yoki soha kesimida suv tejash, yashillik ko‘lami va ekologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha ochiq hisobot tizimini yo‘lga qo‘yish, erishilgan natijalarni ham, aniqlangan kamchiliklarni ham jamoatchilikka oshkora taqdim etish zarur. Faqat shunday shaffoflik orqali fuqarolar davlat siyosatining amaliy samarasini o‘z ko‘zi bilan ko‘ra oladi. O‘z navbatida, bu jarayonda faol ishtirok etishga intiladi. Ishonch esa har qanday uzoq muddatli islohotning eng mustahkam tayanchidir.

Kelajak avlodga qoladigan meros

To‘rtinchi milliy dasturning yakuniy natijasi odamlar hayotidagi o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Bugun ekilgan ko‘chat soyasida ertaga biz tanimaydigan bir inson dam olishi mumkin. Unga bu daraxtni kim ekkanini bilish shart emas, qilingan mehnatning foydasi baribir yetib boradi.

Tabiat oldidagi mas’uliyatning eng chuqur ma’nosi ham shundaki, bugungi qaror keyingi avlodning yashash sharoitini belgilaydi. Farzandlarga qoladigan meros tarkibida faqat yangi korxonalar va raqamlargina emas, balki sog‘lom tuproq, ishonchli suv manbai va soyali ko‘chalar ham bo‘lishi kerak.

Milliy yuksalish g‘oyasining to‘rtinchi yo‘nalishdagi ifodasi ana shu davomiylikni ta’minlash, bugungi farovonlikni yaratish jarayonida kelajakning yashash imkoniyatlarini ham asrashdir. Shu nuqtayi nazardan, qabul qilingan yangi milliy dastur iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli barqarorligini, inson qadrini yuksaltirish g‘oyasining amaliy ifodasini va kelajak avlodlar oldidagi axloqiy burchni bir-biriga bog‘lab turuvchi umumiy zamin. Shu bilan birga, fuqarolar qalbida tabiatga mas’uliyatli munosabat qanchalik rivojlansa, milliy yuksalishning barcha yo‘nalishi shunchalik mustahkam asosga ega bo‘ladi. Chunki har qanday taraqqiyot inson yashaydigan muhitning sifati bilan baholanadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Tahlil

EHTIYOJDAN YECHIMGACHA:

AHOLI MANFAATI YO‘LIDAGI IZCHIL QADAMLAR

Gazning hududlar bo‘yicha taqsimoti, tashilishi, iste’molchiga yetkazilishi ham yagona zanjir sifatida ishlashi kerak. Zanjirdagi bir bo‘g‘in sust ishlasa, ta’siri oxirgi manzilda seziladi.

Bugun mamlakatimizning chekka hududlarida, jumladan, qishloqlarda suyultirilgan gaz to‘ldirilgan ballon xonadon hayotining bir qismiga aylangan. Bir ballon to‘lsa, oila bir necha haftalik osh-ovqatini xotirjam rejalashtiradi. Ilgari o‘tin tashish, maydalash, olov yoqish, tutun ichida ovqat tayyorlash ko‘p vaqt va mehnat talab qilgan. Suyultirilgan gaz esa kundalik mana shu yumushlarni ancha yengillashtirdi.





Masalaning ko‘lami mamlakat miqyosidagi raqamlarda ham ko‘rinadi. Bugun 3 million 800 mingga yaqin odam va 2000 ga yaqin ijtimoiy soha obyekti suyultirilgan gazdan foydalanadi. Joriy yilda ularning ehtiyoji uchun 604 ming 800 tonna gaz yetkazib berish rejalashtirilgan. Shunday katta iste’mol hajmini ta’minlash uchun resursni ishlab chiqarish va xarid qilishning o‘zi kifoya qilmaydi. Gazning hududlar bo‘yicha taqsimoti, tashilishi, iste’molchiga yetkazilishi ham yagona zanjir sifatida ishlashi kerak. Zanjirdagi bir bo‘g‘in sust ishlasa, ta’siri oxirgi manzilda seziladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, suyultirilgan gazni 46 kundan ortiq muddatda olayotgan iste’molchilar ulushi 22 foizni tashkil etadi. Bir oydan ortiq kutish davrida oila kundalik ehtiyojini boshqa yoqilg‘i hisobiga qoplashi mumkin. Bunday vaziyat qo‘shimcha xarajatni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, belgilangan narxda olinishi kerak bo‘lgan gaz o‘rniga bozor narxida yoqilg‘i xarid qilinsa, oila byudjetiga tushadigan bosim ortadi.

Ana shu jihatlar suyultirilgan gaz ta’minotiga yangicha yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Prezidentimizning 2026-yil 12-sentabrdagi “Aholini suyultirilgan gaz bilan ta’minlash tizimini isloh qilish va bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida sohaga bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, vazifalarni ixtisoslashtirish, moliyaviy hisob-kitoblarni ochiqlashtirish va aholiga gaz yetkazib berish ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha aniq choralar belgilangan. Bu yerda asosiy masala faqat tizimning nomi yoki tashkilotlar tarkibini o‘zgartirish bilan cheklanmaydi. Gap gazni ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga yetkazishgacha bo‘lgan tizimni tartibga solish haqida bormoqda. Har bir bo‘g‘in aniq ishlasa, natija ham shunga yarasha bo‘ladi.

Qarorda “Hududgazta’minot” AJ ta’sischiligida “LPG-Trade” MCHJ tashkil etilishi belgilangan. Yangi tuzilma suyultirilgan gazni birja orqali xarid qilish va belgilangan tartibda aholiga yetkazib berish bilan shug‘ullanadi. Vazifalarning bir joyda aniq belgilanishi ta’minot zanjiridagi mas’uliyatni kuchaytiradi. Masalan, qishloqdagi xonadon suyultirilgan gaz ololmay qolganda qayerga murojaat qilishni bilishi kerak. Gazni kim xarid qilgani, kim taqsimlagani, kim yetkazib berishi kerakligi tizimning o‘zida aniq ko‘rinishi zarur. Mas’uliyat bor joyda natijani talab qilish ham osonlashadi. Bu oddiy fuqaro uchun juda muhim. Tizim qanchalik murakkab bo‘lmasin, xizmat iste’molchi uchun sodda bo‘lishi kerak.

Huquqiy hujjatda respublika korxonalarida ishlab chiqariladigan va import qilinadigan suyultirilgan gazni, o‘z shoxobchalarida sotiladigan hajmlardan tashqari, birja savdolari orqali sotish belgilangan. Aholiga gaz yetkazib beruvchi korxonalar mahsulotni birjadan va importdan to‘g‘ridan to‘g‘ri xarid qiladi. Tartibning ahamiyatini oddiy misolda ko‘rish mumkin. Biror mahsulot qayerdan kelayotgani, qanday narxda olinayotgani va keyin qayerga yetkazilayotgani aniq bo‘lsa, harakatini kuzatish ham oson kechadi. Gaz ta’minotida ham shunday aniqlik kerak. Qaysi hududga qancha resurs kerakligi hisoblanadi. Xarid jarayoni ochiq ko‘rinadi. Taqsimotdagi harakat kuzatiladi. Oxirgi manzil esa xonadon bo‘ladi. Shu zanjirning biror joyida uzilish paydo bo‘lsa, uni aniqlash imkoni ham kengayadi.

Yangi tartibning yana bir muhim jihati — xususiy sektor ishtirokini kengaytirish bilan bog‘liq. Andijon viloyatida suyultirilgan gaz yetkazib berish jarayoniga xususiy operatorlarni jalb qilish bo‘yicha pilot loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Agar bir hududda xizmat ko‘rsatuvchi operatorlar ko‘paysa, aholi buyurtma berish, ma’lumot olish va xizmatdan foydalanishda qulaylik sezishi kerak. Qo‘ng‘iroq qilib, bir necha joydan ma’lumot izlash o‘rniga xizmat holatini onlayn kuzatish imkoniyati paydo bo‘lishi mumkin. Gaz mashinasining qachon kelishini bilish ham odamlarning vaqtini tejaydi.



Qarorda iste’molchilar uchun mobil ilova hamda onlayn xizmatlarni yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan. Bu bir qarashda texnik yangilikdek tuyuladi. Aslida, uning ortida juda oddiy va zarur ehtiyoj turibdi. Odam o‘ziga keltirilayotgan gaz haqidagi ma’lumotni qayerdan olishni bilishi kerak. Buyurtma bergan bo‘lsa, uning holatini ko‘ra olishi, to‘lovi hamda yetkazib berish jarayoni haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Bugun ko‘plab xizmatlar telefon orqali bir necha daqiqada hal bo‘layotgan bir paytda gaz ta’minotida ham shunday qulaylikka ehtiyoj bor. Raqamlashtirishning ahamiyati ana shunda. U katta tizimni aholiga yaqinlashtiradi. Iste’molchining vaqti tejaladi. Ma’lumot ochiq bo‘ladi. Xizmat ko‘rsatuvchi bilan iste’molchi o‘rtasidagi munosabat ham aniqroq shaklga keladi.

> **Ma’lumotlarga ko‘ra, suyultirilgan gazni 46 kundan ortiq muddatda olayotgan iste’molchilar ulushi 22 foizni tashkil etadi. Bir oydan ortiq kutish davrida oila kundalik ehtiyojini boshqa yoqilg‘i hisobiga qoplashi mumkin. Bunday vaziyat qo‘shimcha xarajatni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, belgilangan narxda olinishi kerak bo‘lgan gaz o‘rniga bozor narxida yoqilg‘i xarid qilinsa, oila byudjetiga tushadigan bosim ortadi.**

Narx har bir oila uchun muhim masalalardan. Amalda aholi va ijtimoiy soha obyektlariga suyultirilgan gaz imtiyozli narxlarda yetkazib berilmoqda. Uni ishlab chiqarish, import va xarid qilish hamda tashish xarajati mavjud. Shu chiqim bilan aholiga belgilangan narx o‘rtasidagi farq budjet hisobidan qoplanadi. Xarajat oshib borgani sari budjetdan ajratiladigan mablag‘ga ehtiyoj ham ortadi. Bu yerda davlat oldida ikki vazifa turadi. Aholi uchun og‘irlikni kamaytirish bilan birga davlat mablag‘laridan maqsadli foydalanish zarur. Qarordagi yangi yondashuv shu ikki vazifani bir tizimda hal qilishga qaratilgan.

Shu maqsadda kross-subsidiyalash amaliyotini bosqichma-bosqich bekor qilish va ehtiyojmand aholiga manzilli yordam berish ko‘zda tutilmoqda. Xarid qilingan suyultirilgan gazning har bir kilogrammi uchun ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga kompensatsiya to‘lash mexanizmi belgilangan. Bu yerda gap oddiy hisob-kitob haqida ketmayapti. Masalan, ikki xonadon bir xil miqdorda gaz ishlatishi, lekin ularning daromadi, oilaviy sharoiti va imkoniyati barobar bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun yordamni ehtiyojmand xonadonga manzilli yetkazish masalasi muhim. Davlat mablag‘i umumiy xarajatlar ichida tarqalib ketmay, yordamga muhtoj oilaga borib yetsa, samarasi ham ko‘rinadi. Asosiysi, kompensatsiya o‘z vaqtida to‘lanishi lozim. Chunki ro‘zg‘ordagi ehtiyoj bugun bo‘ladi. Uning yechimi ham o‘z vaqtida hal etilishi kerak.

Qarorda ijtimoiy soha obyektlari uchun ham alohida tartib belgilanmoqda. Ularga suyultirilgan gaz birja bahosida yetkazib beriladi. Aholiga belgilangan narxda sotish natijasida yuzaga keladigan farqni respublika byudjeti hisobidan qoplash nazarda tutilmoqda. Buning ortida maktab, bog‘cha, tibbiyot muassasasi kabi obyektlarning kundalik faoliyati turibdi. U yerda gazning o‘z vaqtida bo‘lishi bir oilaning emas, ko‘plab odamlarning ehtiyojiga daxl qiladi. Shu sababli bu yo‘nalishda ham ta’minotning uzluksizligi muhim. Hisob-kitoblar aniq bo‘lsa, mablag‘ qayerga sarflanayotganini kuzatish osonlashadi. Budjet xarajati shaffofligi ortadi.

Yangi tartibda raqamlashtirish va shaffoflikka urg‘u berilayotgani ham bejiz emas. Ta’minot tizimida raqam qancha ko‘p bo‘lmasin, ularning harakati ochiq ko‘rinmasa, tizimni nazorat qilish qiyinlashadi. Qancha gaz keldi, qanchasi aholiga ajratildi, qanchasi ijtimoiy obyektlarga yetkazildi, qancha mablag‘ sarflandi — bu savollarning aniq javobi bo‘lishi kerak. Raqamlashtirish shu jarayonni kuzatish imkonini kengaytiradi. Iste’molchi ham, o‘z navbatida, xizmat haqida aniq-tiniq ma’lumot oladi. Bunday tartibda ortiqcha ovoragarchilik kamayadi. Eng muhimi, tizimdagi mas’uliyat kuchayadi.

Gaz ta’minotida xavfsizlik masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Gaz to‘ldirish inshootlari belgilangan talablarga javob berishi kerak. Tashish jarayonida ehtiyot choralariga amal qilinishi zarur. Operatorlar ham malakali mutaxassislar bo‘lishi shart. Bu talablarning har biri ortida inson hayoti turibdi. Shuning uchun xususiy operatorlar ko‘payishi bilan nazorat ham kuchayishiga zarurat ortadi. Raqobat xizmatni yaxshilashi mumkin. Xavfsizlik talablari esa har bir operator uchun bir xil bo‘lishi lozim. Gaz bilan ishlashda eng kichik beparvolik ham katta ko‘ngilsizliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois, yangi tartibda xizmat qulayligi bilan xavfsizlik yonma-yon borishi talab etiladi.

Har bir katta tizimning qiymati uning odam hayotida qoldirgan ta’siri bilan baholanadi. Qishloqdagi xonadonlar uchun esa bu ta’sir juda oddiy manzarada namoyon bo‘ladi: oshxonada olov yonib turibdi, qozonda taom pishyapti, xonadonda kundalik hayot o‘z maromida davom etyapti. Shu oddiy manzara ortida qancha mehnat, qancha hisob-kitob va qancha mas’uliyat turganini ko‘pincha sezmaymiz.

Suyultirilgan gaz ta’minotidagi yangilanishlarning mohiyati ham oxir-oqibat ana shu xotirjamlikka borib taqaladi. Odam sarson bo‘lmasa, o‘z ehtiyojini oldindan bilsa, belgilangan tartibga ishonsa, tizim o‘z vazifasini bajarayotgan bo‘ladi. Bir xonadondagi qulaylik, bir oilaning tejalgan vaqti, bir ro‘zg‘orning xotirjamligi katta o‘zgarishlarning inson hayotidagi eng aniq ko‘rinishidir. Odamlar turmushida shu xotirjamlik qancha ko‘paysa, qilingan ishning samarasi ham shuncha keng namoyon bo‘ladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



MEVASINI YEB, BOG‘INI HAM SURISHTIRING

Bolaligimizda yeyilgan xurmo danaklarini qiziqish bilan gultuvaklarga ekib ko‘rardik. Danak nish urib, sal bo‘y ko‘rsatardi-yu, bir qarichdan uyog‘iga o‘tmasdi. Banan, kivi kabi tansiq mevalarni yeganimizda esa “Shular bizning yerlarimizda ham pisharmikin-a”, derdik.



Tomorqa — daromad manbayi

Ne ajabki, bugunga kelib serquyosh zaminimizda banan ham, mandarinu kivi ham pishib yetilyapti. Pishganda ham o‘z vatanidagidan-da mazaliroq. Birgina misol. Farg‘ona viloyatining Quva tumanidagi Yangichek mahallasida yashovchi Esonjon ota Hoshimov yetishtirayotgan kividan tatib ko‘rsangiz, nordon ta’mni sezmaysiz. Shuning uchun bu yerga kelib mevani yeb ko‘rganlarning aksari “O‘zbekistonda boshqacha pishar ekan-a, biz ham ekib ko‘raylik”, deb ko‘chatini sotib olyapti. Chunki bog‘bon “Kivizor yaratib qo‘ydim, shundan keladigan daromad yetadi”, deb o‘tirgani yo‘q. Boshqalarning ham daromadli bo‘lishi, uyida bog‘ yaratishini o‘ylab, yangi-yangi ko‘chatlarni xaridorlarga yetkazib beryapti. Zero, uning 3 sotixgina yerdan yaxshigina foyda ko‘rayotgani ko‘pchilikni kivichilikka qiziqtirayotgani rost.

Aslida, oyoq cho‘zib yotadigan yoshida ham tinib-tinchimagan Esonjon otaning o‘zi kivichilikka qanday qiziqib qolgan?

“Avvaliga banan ekib ko‘rdim. Unib-o‘sib, gulladi. 100 ga yaqin mayda-mayda naychali, bodringga o‘xshagan meva ham qildi. Negadir pishira olmadim, — deya gap boshladi otaxon. — Dehqonchilik qonimizda bor-da, birda undoq, birda bundoq-da, deb kayfiyatimni tushirmadim. Bozordan bir kilo kivi urug‘ini olib kelib, 10 metr joyga sepdim. Chunki bir agronom tanishim “Urug‘dan chiqqan ko‘chat o‘zimizning yerga, iqlimga yaxshi moslashadi, 80 foiz samaradorlik bo‘ladi”, degandi.

Urug‘larni 30 kun suvda ivitib, keyin biogumusga ekdim. Urug‘idan undiraman desangiz, biror kun ham namlikni qochirish kerakmas. 27 kun deganda unayotgan urug‘larning oldi ko‘rinishni boshlaydi, 30 kunda to‘liq chiqib oladi. Undan keyin to chinbarg chiqargunicha ehtiyotlab, oftobda kuyib qolmasligi uchun salqinroq joyga ekiladi. Salgina beparvo bo‘lsangiz, navnihol qurib qoladi. O‘zini tutib olganidan keyin esa kuzga, qishga borib qattiq o‘zakka aylanadi va bu bir yoshli ko‘chat hisoblanadi. Ana shu ko‘chat bahorda 15 santimetrga bittadan pomidor ko‘chatini ekkanday ekiladi.

Ikkinchi yilda ko‘chatning tomiri mahkam popuk tomirga aylanadi. Biogumusga, ozuqaga boy joy bo‘lsa, ikki yarim metrgacha o‘sadi. Men hech qanaqa kimyoviy o‘g‘it ishlatmayman, faqat biogumusdan foydalanaman. Kaliforniya chuvalchangidan biogumus oladigan yaxshi mutaxassisni topib olsangiz, ko‘chatingiz yaxshi, tekis chiqaveradi. Agar bu borada ham beparvolik qilinsa, ko‘chatlar siyrakroq bo‘lib qoladi. Yaxshi o‘g‘it ham mevaning mazasiga ta’sir qilsa kerak. Qolaversa, yurtimiz serquyosh, shuning hisobiga kivilarimiz chet elnikidan shirin, nazarimda”.

Esonjon otaning aytishicha, u yetishtirayotgan kivi “heyvard” degan navdan, sovuqqa chidamliligi yaxshi. Uzum ko‘chati singari ishkomga o‘rlab ketadi, xomtok qilinib, o‘sib ketgan shoxlari kesiladi. Aprelda xurmo daraxti bilan bir paytda boychechakka o‘xshab gullaydi. 10-maygacha meva tugadi. Gulining hidi xuddi uzum gulinikiga o‘xshab xushbo‘y bo‘ladi.

Maqola avvalida aytganimizdek, bog‘bon kivi ko‘chatlarini bozorga olib chiqib sotayotgani yo‘q, odamlarning o‘zi uyidan olib ketyapti. Qo‘shni davlatlardan, ayniqsa, Tojikistondan, Qirg‘izistondan ham xaridorlar bor. Yaxshi-da, bir sotix joydan o‘rta hisobda mevasiyu ko‘chati bilan birga 100-120 million atrofida daromad kelib turibdi. Qo‘ni-qo‘shni, qarindoshlarga esa bepul ulashilib, duosi olinyapti.



Birinchi yili 15 kilo bo‘lgan hosil cho‘g‘i yildan yilga ko‘payib borayotgani bog‘bonning kuchiga kuch qo‘shadi. U bu yil 30-35 ta qutida hosil va kamida 150 million so‘m daromad kutyapti. Mehnatning rohatini ko‘radigan kunlarga esa oz qoldi. Kivi bizning sharoitda oktyabr oyi oxiridan boshlab noyabrning birinchi o‘n kunligi oralig‘ida pishib yetiladi. Kivi pishar payti daraxtning o‘zi belgi beradi — barglari to‘kilib, mevalari shundoqqina ko‘rinib qoladi. Agar bitta qirov yesa bormi, yanada mazali bo‘ladi.

Ayni paytda Esonjon ota kivining yana bir yangi navini yetishtirish niyatida. Bog‘bonning aytishicha, kivi bizga asosan Xitoydan kirib keladi. Erondan kelayotgan nav mevasining tuki kamroq, usti sal kengroq bo‘ladi.

— Endi “gold” degan kividan yetishtirib ko‘rmoqchiman. Bu Argentina tomonlardan keladi. Ichi qizil kivi, ammo nihoyatda shirin, totimli bo‘ladi deyishyapti. Bu navdan ham 20-30 ta undirib qo‘ydim, — deydi keksa bog‘bon.

Bog‘bonning hosili juda ko‘payib ketgan taqdirda ham uni sotish muammo emas. Uyiga yaqin joyda meva-sabzavotlarning ulgurji bozori bor. Qolaversa, bugun hokimliklar ham tadbirkorni yolg‘izlatib qo‘ymaydi. Mahallaning rivojlanishiga, odamlarning ishli, daromadli bo‘lishiga hissa qo‘shayotganlarning hurmati joyida. Bir qarich yeridan ham unumli foydalanayotganlar boshqalarga ibrat o‘laroq, alohida e’tirof etilyapti. Chunonchi, gap yer maydoni katta-kichikligida emas, undan qay darajada samarali foydalanishda. Esonjon ota Hoshimov kabilar shu yo‘ldan borib, xonadoniga daromad, ro‘zg‘origa baraka kirityapti.

Farg‘onada kivichilik rivoj topayotgan bo‘lsa, Namanganning To‘raqo‘rg‘onidagi Kalvak mahallasi xurmochilikda ilgarilab ketdi. Aslida, tumandagi 50 ga yaqin mahallaning drayveri — bog‘dorchilik. Kalvak mahallasidagi mingdan ziyod xonadonning deyarli barida xurmo daraxti bor. Yiliga 200 tonnagacha hosil Rossiya, Qozog‘iston va Yevropa davlatlariga eksport qilinadi. Buning ortidan mavsumda har bir oila 30 million so‘mdan 100 million so‘mgacha foyda ko‘radi.

Shu kunlarda eksportbop xurmolar uzilib, xaridorlarga yetkazilyapti. Mahallada 500 dan ortiq mavsumiy, 200 dan ziyod doimiy ishchi shu yumush bilan band. Mavsumiy ishchilar kuniga 200 mingdan 300 ming so‘mgacha daromad qiladi.

Kalvak mahallasidagi hokim yordamchisi Akmal Komilovning aytishicha, mahalla ahli faqat xurmo yetishtirmaydi, erta bahordan ko‘chatchilikka kuch beradi. Pomidor, bulg‘or qalampiri, baqlajon, bodring, qo‘yingki, tomorqaga ekiladigan turfa ko‘chatlar 200 dan ortiq xonadondagi issiqxonada bo‘y cho‘zadi. Ko‘chat mavsumi gilos eksportiga ulanib ketadi. So‘ng uzum, shaftoli, o‘rik, xullas, xurmo pishig‘igacha ish uzilmaydi. 1,5 mingga yaqin oila, 5 mingdan ziyod aholi issiqxonachilik va bog‘dorchilikdan kun ko‘ryapti.

Hokim yordamchisi e’tirof etgan eng yirik meva eksportchilari bilan suhbatda bog‘bonlarga chindan havasimiz keldi. Halol mehnat bilan ham sog‘lom turmush tarzi, ham farovon hayotga erishayotganlardan biri Nuriddin Qodirov xurmoning “Super korolyok”, “Baxmal”, “Ofarin” kabi 15-20 xil yangi navini parvarishlayapti. Uzoq muddatga imtiyozli berilgan 30 sotix yerdan unumli foydalanib, 20 sotixiga xurmo, qolganiga gilosning yangi navlaridan ekkan.

— Oktyabr oyiga o‘tib, qulupnay ekish harakati boshlanadi. Mevani yetishtirish uchun qulay bo‘lgan plastik quvurni o‘rtasidan yordirib, tayyorlab qo‘yganmiz. Nasib qilsa, xalqimizning yangi yil dasturxoniga o‘zimizning qulupnaylarimizni yetkazib beramiz. Bundan tashqari, erta bahorda ochiladigan gullar ekamiz, — deydi tajribali bog‘bon. — Fevralga o‘tib ko‘chat sotish boshlanadi. Mart, aprel oylarida 30-40 xil ko‘chat, 10 xilgacha gul ko‘chatini yetishtirib olamiz. Xotin-qizlar bayramiga gullarimiz ochilib, savdosi rosa qiziydi. Mahsulotlarimizni sotish uchun kunu tun ishlaydigan do‘kon ham ochmoqchimiz.

Qahramonimiz ayni kunlarda xurmoni uyidan turib, Rossiyaga eksport qilyapti. Boshlanishiga kamroqdan, oktyabrga o‘tib esa katta yuk mashinalariga to‘ldirib meva yuklanadi. Naviga qarab ulgurji 9000 so‘mdan boshlab 25 ming so‘mgacha berilyapti. Bunday hisoblaydigan bo‘lsak, bir yilda xurmo savdosiyu ko‘chatchilikdan 250-300 million so‘mga yaqin foyda qilinadi. Oyiga esa 20-25 million so‘mdan to‘g‘ri keladi.

— Odam harakat qilsa, shunga yarasha baraka bo‘ladi, — dedi suhbat so‘ngida usta bog‘bon. — 5-6 yil avval xurmolarimiz xor bo‘lib, juda arzon narxga sotilardi. Faqatgina Rossiya, Qozog‘iston, o‘zimizning Toshkentdagi ichki bozorlarga kirib borardi. Endi esa eksport rivojlanyapti, ko‘plab davlatlarga yuk chiqara olyapmiz. Tadbirkorlik ortidan hurmatimiz ham baland. Xudoga shukr, yuzimiz yorug‘. Halol mehnatimiz ortidan uylar qurib, to‘ylar qilyapmiz. Viloyat, tuman hokimligidan, poytaxtdan keladigan mehmonlarning bari rahmat aytib ketyapti. Nasib qilsa, bir umr shu el, shu xalq uchun xizmat qilamiz. Yurtimiz iqtisodiyotiga salgina hissa qo‘shayotgan bo‘lsak, boshimiz osmonda.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

2026-yil 1-iyuldan “Imtiyozli yo‘llanma moduli” DMED yagona elektron axborot tizimida ishga tushirildi. Qisqa vaqtda ushbu tizim orqali 60 mingdan ziyod yo‘llanma shakllantirildi.

Inson qadri uchun

DAVLAT TIBBIY SUG‘URTASI – XALQ SALOMATLIGIGA YANGICHA YONDASHUV

Prezidentimiz mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda ikkinchi milliy dastur xalqimizning sog‘lom bo‘lishi va uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga xizmat qiladi deya ta’kidladi. Bu oddiy maqsad emas, balki tibbiyotdagi yondashuvni o‘zgartirish, kasallikni davolashdan ko‘ra oldini olish, tibbiy xizmat ko‘rsatishdan inson salomatligini asrashga o‘tish demakdir.

So‘nggi yillarda sohaga ajratilayotgan mablag‘ hajmi 8 barobardan oshdi. 652 ta yangi tibbiyot muassasasi barpo etildi. Ilgari xorijda



amalga oshirilgan murakkab diagnostika va davolash usullarining 100 dan ziyodi bugun yurtimizda bajarilmoqda.

Eng muhimi, mazkur o‘zgarishlar inson qadrini yuksaltirish, hayot sifati va farovonligini oshirishda samarasini namoyon etmoqda. 1991-yilda O‘zbekistonda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 66,4 yosh bo‘lgan. 2025-yilga kelib bu ko‘rsatkich 75,4 yoshga yetdi.

Endi esa tibbiyotda yangi bosqich — profilaktikani kuchaytirish orqali salomatlikni asrash modeliga o‘tilyapti. Davlat tibbiy sug‘urtasini barcha xonadonga olib kirishga harakat qilinyapti.

Aholini kasallik va yuqori tibbiy xarajatlardan moliyaviy himoya qiladigan hamda kafolatlangan tibbiy xizmatlarni nazarda tutuvchi Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasining bu boradagi hissasi, shubhasiz, katta ahamiyat kasb etadi.

Jamg‘arma faqat moliyaviy qo‘llab-quvvatlash emas, balki davlatning inson hayotiga, sog‘lig‘iga va ijtimoiy adolatga mas’uliyatini o‘zida namoyon etdi. Islohotning dastlabki tajriba-sinov hududi sifatida Sirdaryo viloyati tanlanib, 28 ta tibbiyot muassasasi bilan tibbiy xizmatlarni xarid qilish bo‘yicha ilk shartnomalar imzolangan edi. Keyingi bosqichda tibbiy xizmatlarni davlat mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish va xarid qilish mexanizmlari bosqichma-bosqich takomillashtirildi. Imtiyozli toifadagi fuqarolarga yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko‘rsatish xarajatini davlat byudjeti hisobidan qoplash mexanizmi joriy etildi.

Prezidentimizning 2024-yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mazkur tizimni yanada keng yoyishda muhim huquqiy asos bo‘ldi. Qaror bilan aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish hamda davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini boshqa hududlarda ham joriy qilish vazifalari belgilandi. Davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi Toshkent shahrida, keyinchalik Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida bosqichma-bosqich joriy etildi.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 19-maydagi “Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan tajriba-sinov loyihasi yana 15 ta tuman va shaharni qamrab oldi. 2026-yildan esa Samarqand viloyatining barcha tuman va shaharlari davlat tibbiy sug‘urtasi tizimiga to‘liq jalb etildi. 2026-yil 1-oktabrga qadar 14 hududni qamrab olish rejalashtirilgan.

Shu tariqa besh yilda davlat tibbiy sug‘urtasi bir hududdagi tajriba-sinov loyihasidan mamlakat miqyosidagi muhim sog‘liqni saqlash islohotiga aylandi. Tizim orqali qilingan ishlar odamlar hayotida sezilarli o‘zgarishlarga sabab



bo‘ldi. Insonlarning yashash huquqi, sog‘lom va farovon kelajagi ta’minlandi.

Qisqa muddatda reimbursatsiya dasturi aholi uchun sezilarli natija berdi. Bepul beriladigan dori-darmonlar soni 11 tadan 28 taga yetkazildi. 1,7 million bemor reimbursatsiya dasturiga qamrab olingan, imtiyozli toifadagi 400 mingdan ortiq bemor davolandi.

Joriy yil 1-iyuldan boshlab davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi joriy etilgan hududlarda aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishning yangi tartibi amalga kiritildi. Unga ko‘ra, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i yoki ijtimoiy soliq to‘lovchilari, shuningdek, Soliq kodeksiga muvofiq mehnat stajini hisoblash uchun belgilangan miqdorda soliq to‘lagan fuqarolar tuman (shahar) va hududiy darajadagi tibbiyot muassasalarida rejalashtirilgan statsionar tibbiy yordamni elektron navbat asosida bepul olish huquqiga ega.

Shuningdek, qonunchilikda belgilangan tartibda voyaga yetmaganlar, ta’lim muassasalarining o‘quvchilari va talabalari, homilador ayollar, ikki yoshga to‘lmagan farzandini parvarishlayotgan shaxslar, mehnat organlarida ishsiz sifatida ro‘yxatdan o‘tgan fuqarolar, davlat pensiyasini oluvchilar hamda ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalar a’zolariga mazkur tibbiy yordamdan foydalanish huquqi beriladi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi tizimining joriy etilishi fuqarolar zimmasiga qo‘shimcha soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni yuklamaydi. Tizimni moliyalashtirish amaldagi soliq tushumlari va davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Bunda aholiga tibbiy xizmatlarni o‘z vaqtida, sifatli va manzilli ko‘rsatish, shuningdek, kafolatlangan hajmdagi tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish nazarda tutiladi.

Shuningdek, 2026-yil 1-iyuldan davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda davlat mablag‘i hisobidan tibbiy yordam ko‘rsatishning yangi tartibi ishlay boshladi. Endi belgilangan toifadagi fuqarolar rejali davolanish uchun qog‘oz hujjatlar bilan bir muassasadan boshqasiga yugurib yurmaydi. Ya’ni jarayon elektron shaklga o‘tkazilmoqda.

— Avvalo, oilaviy shifokorga murojaat qilinadi, — deydi Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ijro etuvchi direktori o‘rinbosari Ulug‘bek Kandimov. — Bemor o‘zi biriktirilgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasasiga boradi. Oilaviy shifokor bemorni ko‘rikdan o‘tkazadi. Zarur bo‘lsa, tor soha mutaxassisiga yo‘naltiriladi. Bemor tuman yoki shahar darajasidagi tibbiyot muassasasida tegishli mutaxassis ko‘rigidan o‘tadi. Yangi tartibda bu jarayon ham belgilangan muddatlar asosida elektron tizim orqali tashkil etiladi. Keyingi bosqichda davolanish zarur bo‘lsa, elektron yo‘llanma shakllantiriladi. Bemorga qog‘oz ma’lumotnoma to‘plash emas, elektron axborot tizimi orqali yo‘llanma rasmiylashtirish mexanizmi qo‘llanadi. U belgilangan tibbiy muassasada rejali davolanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Yangi elektron tizim orqali bemor nafaqat navbatga yoziladi, balki tibbiy yordam oladigan muassasani ham o‘zi tanlaydi.

2026-yil 1-iyuldan “Imtiyozli yo‘llanma moduli” DMED yagona elektron axborot tizimida ishga tushirildi. Qisqa vaqtda ushbu tizim orqali 60 mingdan ziyod yo‘llanma shakllantirildi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi doirasida tibbiy muassasalarni moliyalashtirishning bir nechta zamonaviy mexanizmi joriy etilmoqda. Jumladan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida aholi jon boshiga to‘lov, ayrim ijtimoiy ahamiyatga molik muassasalarda global byudjet, shifoxonalarda esa global byudjet va davolangan holat uchun to‘lovni qamrab olgan aralash mexanizm qo‘llanmoqda.

Bu yondashuv tibbiyot muassasalarini moliyalashtirishni faqat bino, shtat birliklari yoki xarajatlar hajmiga emas, balki biriktirilgan odam soni, ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar va davolangan holatlarga bog‘lash imkonini beradi.

Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi tibbiyot muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlaydigan asosiy institut. Bu mamlakat uchun juda muhim qadam. Har bir insonning iqtisodiy ahvolidan qat’i nazar, hech qanday moliyaviy qiyinchiliklarsiz sifatli tibbiy xizmatdan foydalana olishi davlat tibbiy sug‘urtasi davlat va aholi o‘rtasidagi ishonch demakdir. Tizim tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish va aholiga zamonaviy, moliyaviy jihatdan barqaror tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishning muhim tayanchi bo‘ladi.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Zamon bilan hamnafas

G‘OYALAR HARAKATI INNOVATSION MAYDONDAGI IMKONIYATLAR

Shu yilning 7-iyul kuni Prezidentimiz davlat boshqaruvining yagona integratsiyalashgan raqamli platformasini joriy etish, startaplar ekotizimini rivojlantirish hamda telekommunikatsiya sohasida tadbirkorlik muhitini yaxshilash yuzasidan taqdimot bilan tanishgan edi. Taqdimotda axborot texnologiyalari sohasi eksporti va startaplar ekotizimini rivojlantirish rejalari ham ko‘rib chiqilgandi.

Mamlakatimizda 2030-yilgacha AT eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, 5 mingta faol startap tashkil etish hamda 2 milliard dollar investitsiya jalb etish maqsad qilingan. Axborot texnologiyalari bugungi zamon talabi va kelajak ehtiyoji. O‘zbekiston aholisining 65 foizini 35 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishi esa texnologik mahsulotlar va raqamli xizmatlarga talab o‘sishi, yangi g‘oyalarni sinovdan o‘tkazish hamda startaplarni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Ayni paytda respublikamizda 145 ta oliy ta’lim muassasasida shu yo‘nalishda kadrlar tayyorlanmoqda.

Bugun O‘zbekiston startap ekotizimida 1600 dan ortiq raqamli startap mavjud. Umumiy kapitali 200 million dollardan ortiq bo‘lgan 20 dan ziyod venchur fond faoliyat yuritmoqda. Startap ekotizimining umumiy qiymati 4,3 milliard dollarga baholanmoqda. 100 dan ortiq o‘zbek startapining xalqaro bozorlarga chiqqani esa mahalliy jamoalar yaratayotgan texnologik yechimlarga mamlakat tashqarisida ham talab borligini ko‘rsatadi. Startaplarni moliyalashtirish va xususiy investorlarni rag‘batlantirishga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etilishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishi bilan ahamiyatli.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 27-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan VI ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida bu yo‘nalishda qator vazifalar belgilangan. Xususan, 2027-2030-yillarda “Kelajak tadbirkori” dasturi amalga oshiriladi. Dastur doirasida “UzVC” milliy venchur fondi sakkizta ustuvor yo‘nalishda ochiq tanlov asosida jami 30 tagacha startapni moliyalashtiradi. Har bir loyiha 5 milliard so‘mgacha investitsiya olishi mumkin.

Davlatning startapdagi ulushi 49 foizdan oshmaydi. Ta’sischilar esa keyinchalik ushbu ulushni bozor qiymatida sotib olish huquqiga ega bo‘ladi. Dastur uchun 2027-yilda davlat budjetidan dastlabki bosqichda 150 milliard so‘m ajratilishi rejalashtirilgan.

Farmonda xususiy investorlarni rag‘batlantirish mexanizmi nazarda tutilgan. StartupBase yagona elektron platformasida ro‘yxatdan o‘tgan startapga, jumladan, SAFE yoki konvertatsiyalanadigan qarz orqali



sarmoya kiritgan jismoniy shaxs “Startap investori” (Business Angel) maqomini olishi mumkin. Agar investor startapdagi ulushini kamida uch yil davomida saqlab, shundan so‘ng uni sotsa, ulushni sotishdan olingan foyda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod etiladi.

— Startap ekotizimi ishtirokchisi sifatida bunday mexanizmlar joriy etilishini muhim qadam hisoblayman, — deydi “IT Park Uzbekistan” texnoparki startaplar oqimini rivojlantirish bo‘limi bosh menejeri Usmon Rahimjonov. — Startaplar uchun moliyalashtirish manbalari ko‘payishi g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish va texnologik mahsulotlarni bozorga olib chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Xususiy investorlarni rag‘batlantirish esa bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. Chunki investor startapga mablag‘ bilan birga o‘z tajribasi, biznes aloqalari va bozorni tushunish ko‘nikmalarini ham olib kiradi. Bu kabi choralar istiqbolli loyihalarga xususiy kapitalni jalb qilish va startaplar bilan investorlar o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirishga turtki berishi mumkin.

Startaplar rivojida moliyalashtirish bilan birga g‘oyani sinovdan o‘tkazish, bilim va tajriba orttirish hamda hamkorlar topish uchun qulay muhit ham muhim o‘rin tutadi.

Bugun mamlakatimizda yoshlarning startap loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ilmiy va ijodiy salohiyatini yuksaltirish uchun yagona maydon yaratuvchi 14 ta hududiy texnopark faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Texnologik ekotizim ishtirokchilaridan biri bo‘lgan “IT Park Uzbekistan” tadbirkorlikni rivojlantirish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash va ularning investorlar bilan hamkorligini kengaytirishga ko‘maklashmoqda. Bugun ushbu park ekotizimi 3800 dan ortiq rezidentni, jumladan, 1000 dan ziyod xorijiy kompaniyani birlashtiradi. Rezident kompaniyalarda 56 mingdan ortiq xodim mehnat qilmoqda. Mahalliy va xorijiy kompaniyalar, mutaxassislar hamda investorlarni birlashtirgan bu muhit startaplar uchun tajriba almashish, hamkorlar topish va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

— Bugun do‘kon, restoran, mehmonxona, klinika yoki bankka kirganimizda turli ekranlarga ko‘zimiz tushadi, — deydi Smartcast startapi muallifi Rachayel Quronboyeva. — Ularda reklama, aksiyalar, xizmatlar haqida ma’lumot yoki kompaniyaning boshqa xabarlari namoyish etiladi. Biroq ekranning o‘zi raqamli bo‘lgani bilan uni boshqarish usuli har doim ham zamonaviy emas.

Ayrim kompaniyalarda kontent hanuz qo‘lda almashtiriladi, USB-disklardan foydalaniladi, yangilanishlar esa zarurat tug‘ilgandagina amalga oshiriladi. Bir necha filialga ega biznes uchun bu yanada murakkab: har bir manzildagi ekranni alohida nazorat qilish, kontentni yangilash va uning to‘g‘ri namoyish etilayotganini tekshirish kerak bo‘ladi.

Smartcast ana shu jarayonni markazlashtirishga qaratilgan. Platforma orqali kompaniyalar turli manzillardagi ekranlarini bitta tizimda boshqarishi, kontentni masofadan turib yangilashi va namoyishlarni oldindan rejalashtirishi mumkin. Shu tariqa ekran markazdan boshqariladigan raqamli axborot kanaliga aylanadi.

Ekranlarni bir tizimga birlashtirish ulardan reklama maydoni sifatida foydalanish imkoniyatini ham yaratadi. Shu maqsadda Smartcast asosida Smartcast Media yo‘nalishi rivojlantirilmoqda. U ekran joylashgan bizneslar bilan reklama beruvchilarni bog‘lashni maqsad qilgan. Masalan, restoran yoki savdo nuqtasida o‘rnatilgan ekranda shu biznesning o‘z ma’lumotlari bilan birga boshqa kompaniyalar reklamalari ham namoyish qilinishi mumkin. Bu holda ekran egasi qo‘shimcha daromad oladi, reklama beruvchi esa o‘z mahsuloti yoki xizmatini muayyan joydagi auditoriyaga ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yoshlarning bu kabi innovatsion g‘oya va loyihalari ko‘p. Ularning qiymati muayyan muammoni hal qilishi va amaliyotda odamlarga foyda keltirishi bilan belgilanadi. Ayollar salomatligiga yo‘naltirilgan Femmy platformasi ana shunday ehtiyojdan paydo bo‘lgan.

— Femmy ortida juda oddiy, lekin muhim kuzatuv bor edi. Ayollarda o‘z salomatligi haqida juda ko‘p savollar bor, lekin zarur ma’lumotni o‘z vaqtida topish har doim ham oson emas, — deydi g‘oya muallifi Maftuna Karimova. — Ayniqsa, reproduktiv salomatlik borasida ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlardan javob izlashadi. Men esa bu tajribani bitta ishonchli platformaga yig‘ish mumkinligini o‘ylardim.

Shu tariqa platformada salomatlik haqidagi kontent, homiladorlik va onalik davrida zarur bo‘ladigan yordamchi xizmatlar shakllandi. Keyinchalik sun’iy intellekt asosidagi tahlil va teletibbiyot yo‘nalishlarini rivojlantirishga e’tibor qaratildi. Bu jarayonda asosiy vazifa foydalanuvchilar ehtiyojini tushunish va ularga kerakli yechimni taklif etish bo‘ldi.

Femmy ayollarga o‘z salomatligi haqidagi ma’lumotlarni tushunish, holatini kuzatish va kerak bo‘lganda professional yordamga murojaat qilish imkonini beradi. Bugungi kunga kelib platformadan 100 mingdan ortiq ayol-qiz faol foydalanmoqda.

Startap uchun eng qiyin bosqichlardan biri — g‘oyani barqaror biznesga aylantirish. Mahsulot yaratish bilan birga uni odamlar muntazam ishlatadigan, amaliy foyda beradigan va iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydigan darajaga olib chiqish ham talab etiladi.

Femmy jamoasi ham mahsulotni kengroq platformaga aylantirish ustida ishlamoqda. Sun’iy intellekt va teletibbiyot kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish orqali ayollar salomatligining turli bosqichlarida zarur bo‘ladigan xizmatlarni bir joyda taqdim etish ko‘zda tutilgan.

— Bugungi kunda biz mahsulot, texnologiya, marketing va salomatlik yo‘nalishlarini birlashtirgan jamoa bilan ishlayapmiz, — deydi g‘oya muallifi. — Kelgusi ikki-uch yildagi eng katta maqsadimiz — Femmyni O‘zbekistondagi mahsulotdan xalqaro ayollar salomatligi platformasiga aylantirish. Buning uchun biz sun’iy intellekt asosidagi sog‘liq tahlili, teletibbiyot va keyinchalik ayollar salomatligining turli bosqichlariga mos xizmatlarni rivojlantirmoqchimiz.

Ba’zan katta loyiha bitta oddiy savoldan boshlanadi: odamlar har kuni duch keladigan muammoni texnologiyalar yordamida qanday hal qilish mumkin? Smartcast uchun bu ekranlardagi ma’lumotlarni boshqarish, Femmy uchun esa ayollarga salomatlik haqidagi zarur axborot va xizmatlarni qulay shaklda yetkazish masalasi bo‘ldi. Bugun ana shunday amaliy ehtiyojlardan tug‘ilgan g‘oyalar O‘zbekistonda shakllanib, xalqaro bozorlarga chiqishni maqsad qilgan texnologik bizneslarga aylanmoqda. Bu esa mamlakatimizda yoshlarning innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, startaplarga moliyaviy va infratuzilmaviy yordam ko‘rsatish, texnologiyalar va venchur investitsiyalar bozorini rivojlantirishga qaratilgan e’tibor samarasidan darak beradi.

R. HAYITQULOVA,
jurnalist


> **Startap uchun eng qiyin bosqichlardan biri — g‘oyani barqaror biznesga aylantirish. Mahsulot yaratish bilan birga, uni odamlar muntazam ishlatadigan, amaliy foyda beradigan va iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydigan darajaga olib chiqish ham talab etiladi.**

Odil Yoqubov rahbarlik qilgan yillarda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” xalqimizning dardini yuzaga chiqaradigan minbarga aylandi. Orol dengizining qurishi, Bo‘stonliq tumanida atrof-muhitga zarar yetkazadigan zavod qurilishiga qarshi jamoatchilik fikrini shakllantirish, paxta yakkahokimligi, sho‘ro armiyasidagi zo‘ravonlik (dedovshina) muammolari ilk bor shu gazetada ko‘tarib chiqildi.

Odil Yoqubov tavalludining 100 yilligi oldidan

ISMI JISMIGA MONAND

ULUG‘ ADIB



O‘tgan asrning saksoninchi yillari boshida haftada ikki marta chop etiladigan “O‘zbekiston madaniyati” gazetasi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” haftaligiga aylantirilib, sakkiz sahifada chiqa boshladi. O‘sha paytda sobiq sho‘rolar yozuvchilar uyushmasi nashri — “Literaturnaya gazeta” ittifoqdagi eng nufuzli va ommabop gazetalardan biri edi. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”ni shu gazetaning o‘zbekcha muqobiliga aylantirish maqsad qilingan edi. Shuning uchun o‘sha davrning eng o‘qishli va ilg‘or fikrli jurnali bo‘lmish “Guliston” bosh muharriri, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtor haftalikka rahbar etib tayinlangandi.

Oradan ko‘p o‘tmay, kutilganidek, gazeta o‘z o‘quvchilarini topdi: faqat ziyolilarning emas, barchaning — o‘qituvchi-yu muhandisning, temiryo‘lchi-yu shifokorning, talaba-yu o‘quvchining, hatto dehqonning ham sevimli nashriga aylandi. Mamlakatning eng uzoq qishloqlaridagi xonadonlargacha kirib bordi. Odamlar “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”ni matbuot do‘konlarida navbatda turib sotib oladigan bo‘ldi.

O‘sha paytda men ToshDU jurnalistika fakulteti talabasi edim. To‘rtinchi kursni tugatgach, hikoyalar mashq qilib yurganim bois, ishlab chiqarish amaliyotimni adabiyot gazetasida o‘tashga qaror qildim. Keyinroq Asqad Muxtor tahriri bilan shu gazetada birinchi hikoyam ham e’lon qilindi.

Tahririyatga borib, mas’ul kotib Mamatqul Hazratqulov bilan uchrashdim. Tasodifni qarangki, amaliyotga borgan paytimda haftalik korrekturasida bitta o‘rin bo‘sh ekan. Maoshi ham durustgina — 60 so‘m. Menga o‘xshagan qishloqdan kelib, zo‘rg‘a kun ko‘rib yurgan talaba uchun bu katta pul edi. Mamatqul aka ishlash taklifini berganda, o‘ylab ham o‘tirmasdan darrov rozi bo‘ldim. Vazifam ancha oson edi: musahhihlar sahifani o‘qiganda matnga qarab turish, tayyor sahifalarni muharrir, uning o‘rinbosari, mas’ul kotib va navbatchiga tarqatish hamda xatosi tuzatilgan sahifalarni bosmaxonaga olib borish.

Men o‘sha paytlarda darsdan so‘ng, ya’ni tushdan keyin ishga kelardim. Korrekturadagi ishlar ko‘proq kechki payt va tunga to‘g‘ri kelgani uchun bosh muharrirni deyarli ko‘rmasdim.

1982-yili haftalikka Odil Yoqubov bosh muharrir bo‘lib keldi. O‘sha yili universitetni tugatdim. Korrekturada ishlasam-da, bo‘sh vaqtlarda gazeta uchun sport haqida maqolalar, sportchilar bilan suhbatlar yozib turardim.

1984-yilning sentabrida ta’tilga chiqib, qishloqqa ketdim. O‘sha kunlarning birida hamkasbim, do‘stim Qulman Ochilovdan telegramma oldim. U paytlarda bugungi sharoit qayoqda deysiz! Qishloq tugul, shaharlarda ham telefon muammo edi. Telegrammada tezda yetib kelishim so‘ralgandi. Avvaliga xavotirga tushdim. Gazetada birorta xato o‘tib ketgan bo‘lsa, shunga chaqirayotgan bo‘lishi ham mumkin edi-da. Shu bois, ta’tilni to‘xtatib, Toshkentga qaytdim.

Tahririyatga borsam, bosh muharrir chaqirtirgan ekan. Aytishlaricha, ta’tilda bo‘lgan paytimda avvalroq tayyorlab ketgan shaxmat bo‘yicha birinchi o‘zbek grossmeysteri Georgiy A’zamov bilan suhbatim haftalikda e’lon qilinibdi. Odil Yoqubov o‘sha paytda qaysidir sanatoriyda dam olayotgan ekan. Grossmeyster bilan suhbatimni o‘qib, o‘rinbosari Ibrohim G‘afurovga telefon qilib, menga rahmat aytishini hamda tezda ishga chaqirishni tayinlabdi. Toshkentga kelishim bilan katta muxbir lavozimiga ishga o‘tkazildim.

Men bu bilan nima demoqchiman? Ustoz hech qachon odam ajratmasdi, qo‘lidan ish keladiganlarni, albatta, gazetaga jalb qilardi, imkoni bo‘lsa, ishga olardi. O‘sha paytda tahririyatda Mahmud Sa’diy, Nusrat Rahmatov, Yoqubjon Xo‘jamberdiyev, Sa’dulla Hakim, Murod Abdullayev, Kamol Matyoqubov, Ashurali Jo‘rayev, Ahmad Otaboyev, Gulchehra Umarova, Abdunabi Haydarov, Karim Bahriyev kabi o‘z ishining ustalari, zabardast publitsistlar, adabiyotshunoslar, tahrirchilar ishlardi.

Odil Yoqubov rahbarlik qilgan yillarda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” xalqimizning dardini yuzaga chiqaradigan minbarga aylandi. Orol dengizining qurishi, Bo‘stonliq tumanida atrof-muhitga zarar yetkazadigan zavod qurilishiga qarshi jamoatchilik fikrini shakllantirish, paxta yakkahokimligi, sho‘ro armiyasidagi zo‘ravonlik (dedovshina) muammolari ilk bor shu gazetada ko‘tarib chiqildi. Bu maqolalar ziyolilar, jamoatchilik tomonidan muhokama qilindi, qo‘llab-quvvatlandi. Shu bilan birga, tegishli tashkilot va idoralar tomonidan gazeta rahbariyatiga turli tazyiqlar bo‘lgani ham rost.

Ustoz hali SSSR degan buyuk imperiya tirik turgan davrda ham gazetani mustaqil, xalq fikrini ayta oladigan nashrga, minbarga aylantira oldi. Boshqacha aytganda, Odil Yoqubov bosh



muharrir bo‘lgan paytda gazeta respublikadagi eng ommaviy, eng o‘qishli nashrga aylandi, adadi 800 mingga yaqinlashdi. Mavzular adabiyot va san’at chegarasidan chiqib, publitsistika birinchi o‘ringa ko‘tarildi. Yozuvchi va shoirlar she’r, hikoya, qissa, roman o‘rniga maqola yoza boshladi. Tahririyat ziyolilar yig‘iladigan shtabga o‘xshardi. Shoirlar, yozuvchilar, jurnalistlar, rassomlar, hatto qo‘shiqchi san’atkorlar ham tahririyatga kelardi. Suhbatlar mavzusi yurtni, xalqni qiynayotgan eng nozik masalalar bo‘lardi, bu muammolarni qanday hal etish mumkinligi haqida fikr almashilardi.

O‘sha paytda oddiy odamlar ham uyg‘ongandi. Har kuni hududlardan yuzlab xat kelardi. Odamlar gazetada chiqayotgan



maqolalarga munosabat bildirar, o‘zlarini qiynayotgan tashvishlar haqida kuyunib yozardi. Ayniqsa, huquq-tartibot idoralari xodimlarining xurmacha qiliqlari tilga olingan xatlar behisob edi.

Haftalikning xatlar bo‘limida uch xodim ishlardi. Qizig‘i shundaki, ular kechgacha xatlarga o‘zi javob yozar, hayotda qiynalgan odamlarga maslahatlar berardi. Ayrim xatlarni muxbirlarga berib, xizmat safariga jo‘natardi.

Bosh muharrir bizni ko‘proq xizmat safariga borishga, xatlarda ko‘tarilgan muammolarni o‘rganib kelishga undardi. Ba’zan dam olish kunlari ham safarga yuborardi. “Sizlar hali yoshsizlar, dam olishga ulgurasizlar. Uyda o‘tirib nima qilasizlar? Jurnalist, ijodkor xalq ichida bo‘lishi, odamlar bilan suhbatlashishi, eng muhimi, hayotni ko‘rishi, odamlarning dardini tinglashi kerak. Kabinetda o‘tirib yozilgan maqola jonli chiqmaydi, uni hech kim o‘qimaydi. Shuning uchun muammoni joyiga borib o‘rganish, xat muallifi bilan uchrashish, suhbatlashish, shu bilan birga, ikkinchi tomonni



> **Ustozning yana bir yaxshi xususiyati shunda ediki, u tahririyatga kelgan har bir xatga alohida e’tibor qaratardi. Chunki o‘sha paytda, yuqorida ta’kidlaganimdek, odamlar yuragidagi dardini, o‘zlarini qiynayotgan muammolarni qalamga olar, tahririyatga ishonar, undan najot kutardi. “Har bir xat ortida inson taqdiri bor, ularda yozilgan muammolarni hal qila olmasak ham, hech bo‘lmasa, bir og‘iz shirin so‘z bilan javob yozinglar. Xat e’tiborsiz qolmasin, odamlar javob kutadi”, derdi doimo.**

tinglash va shundan keyingina bir xulosaga kelish lozim”, derdi.

Albatta, faqat respublikada emas, Markaziy Osiyoda mashhur va taniqli yozuvchining gapini kim ikki qila olardi?! Indamasdan juma kuni xizmat safariga ketib, dushanba kuni ertalab ishga kelgan paytlarimiz ham bo‘lgan. Lekin hech kim nolimasdi, to‘g‘risini aytsam, men birorta xodimning bosh muharrir xatti-harakatidan norozi bo‘lganini, kecha dam olmasdan falon viloyatga borib, charchab keldim deganini eshitmaganman.

Yosh edik, xizmat safariga chiqish, xatlarda yozilgan muammolarni o‘rganish bizga ham qiziq edi, zavq berardi. Bundan tashqari, yozgan maqolamizga yaxshigina qalam haqi ham olardik. O‘sha paytda bitta yaxshi maqolaga 60-70 so‘m, ba’zan 100 so‘mgacha pul to‘lanardi. O‘shanda maoshim 150 so‘mligini hisobga olsak, 100 so‘m juda katta pul ekani oydinlashadi.

Ustozning yana bir yaxshi xususiyati shunda ediki, u tahririyatga kelgan har bir xatga alohida e’tibor qaratardi. Chunki o‘sha paytda, yuqorida ta’kidlaganimdek, odamlar yuragidagi dardini, o‘zlarini qiynayotgan muammolarni qalamga olar, tahririyatga ishonar, undan najot kutardi. “Har bir xat ortida inson taqdiri bor, ularda yozilgan muammolarni hal qila olmasak ham, hech bo‘lmasa, bir og‘iz shirin so‘z bilan javob yozinglar. Xat e’tiborsiz qolmasin, odamlar javob kutadi”, derdi doimo.

Bir kuni Odil aka yo‘lakdan o‘tib keta turib, xatlar bo‘limiga burildi. Men ham shu xonaga ish bilan kirgandim. Gazetxonlardan kelgan maktublarga yozilgan bir dasta javob xatlar stol ustida turgan ekan. “Bu javoblar nega jo‘natilmagan?” deb so‘radi xatlar bo‘limi mudiri Muhabbat opa Turobovadan.

“Konvertimiz tugab qolgandi, buyurtma qilindi, to‘rt-besh kunda tayyor bo‘lsa, jo‘natib yuboramiz”, dedi Muhabbat opa. O‘sha paytlarda ustiga gazeta nomi yozilgan maxsus konvertlar bo‘lardi. Bu konvertlar maxsus buyurtma asosida tayyorlab berilardi.

“Gazetxon to‘rt-besh kun kutib o‘tirmaydi. Hozir pochtaga boringlar-da, konvert olib kelib, shu bugunoq xatlarni jo‘natib yuboringlar”, dedi ustoz va Muhabbat opaga 100 so‘m uzatdi. Ertasi kuni shu pulga konvert olib kelinib, barcha xatlar jo‘natib yuborildi.

Odil aka ulug‘ yozuvchi edi, kitoblariga katta qalam haqi olardi. 100 so‘m u uchun katta mablag‘ bo‘lmagandir. Lekin o‘sha davr o‘lchovi bilan qarasak, bu ko‘p pul edi. Har qanday rahbar ham o‘zi mehnat qilib topgan pulini bunday ishlarga sarflayvermasdi. Aksincha, o‘sha paytda davlat mablag‘ini o‘zlashtirishni o‘ylaydiganlar ko‘proq edi.

Ustozning talabchanligi, bizni ko‘p bora xizmat safarlariga jo‘natgani tufayli respublikaning deyarli barcha viloyatlarigagina emas, barcha tumanlariga ham bir marta emas, bir necha martalab borganmiz. Bu biz — yosh muxbirlarga katta tajriba, maktab, saboq bo‘lgan. Odamlar, joylardagi rahbarlar bilan muloqot qilishni o‘rganganmiz, tahliliy maqolalar, sud ocherklari yozib, sal bo‘lsa-da, elga tanilganmiz.

Odil Yoqubov bilan to‘rt-besh yil birga ishlab, hech qachon o‘zini yuqori olganini,



odam ajratganini, katta yozuvchi ekanini pesh qilganini ko‘rmaganman. U o‘rinbosari bilan ham, tahririyat musahhihi bilan ham, Yozuvchilar uyushmasi raisi yoki madaniyat vaziri bilan ham bir xil munosabatda bo‘lardi, aytadigan gapini bemalol ayta olardi.

Ba’zan tahririyatdagi majlis, tadbir yoki gazetaning kelgusi sonini rejalashtirish paytida yuqoridan, deylik, partiya markaziy qo‘mitasidan, muassislar — Yozuvchilar uyushmasi yoki Madaniyat vazirligidan telefon bo‘lib qolardi. Ayrim materiallarga e’tiroz bildirilardi. Shunday paytlarda Odil aka mutlaqo yaltoqlanmasdi. “Sizlar hamma narsaga aralashavermanglar. U maqolani men chiqarganman, bosh muharrir sifatida o‘zim javob beraman”, deb telefon go‘shagini qo‘yib qo‘yardi.

Ustozning yana bir ajoyib xususiyati shunda ediki, u yaxshi maqolani hech qachon ushlab o‘tirmasdi. Gazeta tayyor bo‘lib, bosmaxonaga jo‘natilayotgan paytda ham biror o‘qishli, xalq dardi, muammosi ko‘tarilgan maqola kelib qolsa, albatta, o‘sha songa qo‘ydirardi. “Gazeta kechiksa ham shu songa qo‘yinglar, bu muammo ertaga eskirishi mumkin”, derdi.

2001-yil bahorda Hamza nomidagi akademik teatr — hozirgi Milliy teatrda bir tadbir bo‘ldi. Men adabiyot gazetasi muxbiri sifatida qatnashdim. O‘sha paytda Odil aka Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo‘mitasi raisi edi. Majlis tugagach, foyeda Odil akani ko‘rib qoldim. Ustoz ham tadbirga kelgan ekan. Chopib borib, paltosini garderobdan olib keldim va kiyishiga yordamlashdim. Tashqarida yomg‘ir tomchilab turardi. Shuning uchun Odil akaning qo‘lidan ushlab, zinadan pastga tushishiga ko‘maklashdim.

— Haliyam gazetadamisan? — dedi pastga tushgach. O‘g‘li Iskandar bilan tengdosh va do‘st bo‘lganim uchun ustoz meni senlab gapirardi.

— Ha, — dedim.

Odil aka bilan uning xizmat mashinasi oldigacha birga bordik. Men xayrlashmoqchi bo‘lgandim, to‘xtatdi.

— Sen pastga tushishimga yordam berganing uchun men seni ishxonangga olib borib qo‘yishim kerak-da endi, — dedi kulib.

— Yo‘q, o‘zim ketaveraman, — dedim astoydil.

— O‘tir, — dedi buyruq ohangida.

Indamay o‘tirdim. Haydovchiga mashinani Matbuotchilar ko‘chasiga haydashni buyurdi. O‘sha kuni ustoz meni ishxonam oldida qoldirib, keyin o‘z ish joyiga ketdi.

O‘sha voqea esimga tushsa, o‘ylanib qolaman. Odil Yoqubov kimu men kimman? Bu ulug‘ yozuvchi “Tengdoshlar”, “Ikki muhabbat”, “Muqaddas”, “Qanot juft bo‘ladi”, “Billur qandillar”, “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo”, “Diyonat”, “Oq qushlar, oppoq qushlar” kabi yuzlab ajoyib hikoya, qissa va romanlar muallifi edi. Uning asarlari dunyoda e’tirof etilgan, ko‘plab tillarga tarjima qilingan. U Chingiz Aytmatov, Rasul Hamzatov, Qaysin Quliyev, Yuriy Bondarev, Vasil Bikov, Anar, Valentin Rasputin, Nodar Dumbadze kabi ulkan yozuvchilar bilan do‘st, safdosh edi.

Odil Yoqubov hayotlik chog‘ida mamlakatimizning “Do‘stlik”, “El-yurt hurmati” ordenlariga sazovor bo‘lgan edi. Joriy yil may oyida yozuvchining yorqin iste’dodi, ko‘p yillik samarali ijodiy faoliyati, Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, xalqimizning ma’rifiy-badiiy tafakkuri va intellektual salohiyatini yuksaltirish, yurtimizda madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini rivojlantirishga qo‘shgan beqiyos xizmatlari yana bir bor e’tirof etildi. Prezidentimiz farmoniga binoan yuksak mukofot — “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

Ustozning Moskvada SSSR xalq deputatlari syezdidagi nutqini odamlar hozir ham unutgani yo‘q. Bu nutq yozuvchining matonati, jasorati, qahramonligi ramzi sifatida tarix sahifalaridan o‘rin oldi. Katta minbarda turib, o‘zbek xalqi boshiga tushgan tuhmat, musibat va jafolarni mamlakat rahbarlari ko‘z oldida ochib tashlaganini odamlar bugun ham hayrat bilan eslaydi, qoyil qoladi, tan beradi.

“Ulug‘bek xazinasi” romani Odil Yoqubovga katta shuhrat keltirdi. Davrimizning ulkan adibi Chingiz Aytmatov shu asar muallifiga yo‘llagan maktubida roman to‘g‘risida bunday yozadi: “Yaxshi kitob haqida gapirish maroqli. Bu — yuksak va olijanob nasr namunasi. Badiiy quvvati jihatidan salmoqdor bu tarixiy roman meni larzaga soldi...”.

Asari bilan Chingiz Aytmatovni larzaga solgan inson oldida men kimman? O‘sha kuni teatr oldida menga “Rahmat senga”, deb indamay mashinaga o‘tirib ketaversa ham bo‘lardi. Lekin unday qilmadi. Ulug‘ adib, O‘zbekiston xalq yozuvchisi, respublika miqyosidagi idora rahbari bir paytlar qo‘lida ishlagan muxbirni ishxonasiga olib borib qo‘ydi. Bu kimlargadir oddiy voqea bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Lekin men uchun oddiy voqea emas. Hamma ham bunday ishni qilavermaydi, qilmaydi. Qancha amal pillapoyalaridan ko‘tarilsa-da, asarlari bilan dunyoga tanilsa-da, odamiylikni, insofni, diyonatni unutmagan, o‘zini boshqalardan ustun qo‘ymagan yozuvchi, to‘g‘rirog‘i, inson shunday yo‘lni tanlaydi. Men ko‘rgan, men bilgan Odil Yoqubov shunday odam edi va shundayligicha xotiramda saqlanib qolgan.

Bekqul EGAMQULOV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Веб-сайт: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
29323 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy